

# Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 5-avgust chorshanba №31(9616)

## BAXTIQARO

11-bet



### HAQIDA ERTAK

16-bet



## Ta'kid



O'zbekiston mustaqillikka erishganiga 35 yil bo'ldi. Shu vaqt ichida mamlakat iqtisodiyoti o'zgardi, davlat boshqaruvi raqamlashdi, yangi avlod voyaga yetdi, sun'iy intellekt hayotimizning bir qismiga aylandi. Ammo hamon yakuniy yechimini topmagan bir masala bor, bu – o'zbek alifbosi. Har safar alifboni takomillashtirish haqida gap ochilsa, muhokamalar mazmundan ko'ra ko'proq ehtirosqa quriladi. "Xarajat ko'p bo'ladi", "odamlar chalkashib ketadi", "hamma narsani qayta yozishga to'g'ri keladi" degan iddaolar ilgari suriladi. Bir qarashda bu xavotirlar asosidek tuyuladi. Ammo ularning aksariyati qonun loyihasidagi me'yorlarga emas, anchayin yuzaki tasavvurlarga tayanadi.

# Alifbo – bir avlod uchun emas

## ALIFBO ALMASHMAYAPTI

Eng avvalo, bir haqiqatni tan olish kerak: alifbo almashmayapti. Hech kim yangi yozuv tizimini joriy qilayotgani ham yo'q. Gap 1993-yilda qabul qilingan lotin alifbosini takomillashtirish haqida ketmoqda. Bu ikki holatni tenglash-tirish – islohotning mazmunini ataylab yoki bilmasdan buzib ko'rsatishdir.

Aslida islohotning bosh maqsadi harflarni almashtirish emas. Uning mazmuni o'zbek lotin alifbosini yanada izchil, sodda va zamonaviy talablarga mos holga keltirishdan iborat. Alifbo bir vaqtning o'zida ham tilshunoslik, ham axborot texnologiyalari, ham davlat boshqaruvi ehtiyojlariga javob berishi lozim. Af-suski, amaldagi alifbomiz bu talablarni to'liq ta'minlay olmayotgani amaliyotda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Biz yillar davomida alifbodagi ayrim harflarni to'g'ri yozishning murakkabliklari haqida, noiljlikdan ular uchun alohida istisnoli qoidalar joriy etish zarurati to'g'risida gapirib keldik. Ammo bugun – barcha sohalar kabi til ham

raqamlashayotgan bir paytda alifboga oid muammolarning ko'lami biz o'y-lagandan ko'ra kengroq va chuqurroq ekani namoyon bo'ldi. Ma'lum bo'ldi-ki, harflar va tinish belgisi yordamida sun'iy ravishda yasalgan O' va G' harflari Unicode xalqaro belgilar jadvalida bitta mustaqil harf sifatida kodlanmagan. Obrazliki qilib aytadigan bo'lsak, ular yax-lit harf sifatida ildizga ega emas.

Sh va Ch birikmalari ham qator noqulayliklarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, ular tilimizdagi juda faol to-vushlar ifodachisi bo'lgani bois so'zlar, jumladan sun'iy ravishda kengayib ketmo-qda. Is'hoq, as'hob kabi so'zlarni to'g'ri yozish va o'qish uchun, garchi vazifasiga kirmasa-da, tutuq belgisini qo'yishga ma-jbur bo'lyapmiz.

Lug'atlarni avtomatik shakllantirish jarayonida Sh bilan boshlangan so'zlar S harfi bilan boshlanadigan so'zlar qatori-da saralanib qolyapti va ularni to'g'rilash uchun qo'shimcha algoritmlar ishlab chiqishga to'g'ri kelmoqda. Qisqart-malarning yozilishida (masalan, AQSh – AQSH, JCh – JCH) chalkashliklar ro'y bermoqda va hokazo.

Shu bois yuqoridagi qo'sh belgili harf birikmalarini "bir tovush – bir harf" tamoyili asosida isloh qilish maqbul yechim sifatida ko'rilmogda. Taklif etilayotgan Ğ, Ö, Ş va Ç harflari Unicode stan-dartida mustaqil kodga ega ekani va turli dasturiy platformalar tomonidan barqa-ror qo'llab-quvvatlanishi bilan ahamiyat-lidir.

## XARAJATLAR HAQIDA

Yana bir muhim masala – xarajatlarni haqida. Qonun qabul qilinishi bilan erta-sidanoq millionlab pasportlar, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar, darsliklar, ko'cha peshlavhalari, davlat idoralari blankalari va yo'l belgilari almashtirilishi kerak bo'lmaydi. Bunday talab mutlaqo mavjud emas.

Qonunning tegishli moddasida barcha rasmiy hujjatlar, milliy valyuta va qimmatli qog'ozlar, davlat organlarining ramziy belgilari va boshqa atributlari, ularning binolarida aks ettirilgan dav-lat gerbining bo'rtma tasviri, geografik obyektlarning nomlari tushirilgan pesh-lavha va ko'rsatkichlar hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa ashyolar va manbalardan ya-

roqsiz holatga kelib qolgunga yoxud belgilangan muddatga qadar foydala-nilishi aniq-ravshan yozib qo'yilgan. Takomillashtirilgan alifboni jamiyatda to'liq, ortiqcha qiyinchiliksiz va xara-jatlarsiz joriy etishga oid masalalar ayni paytda loyihasi ishlab chiqilayotgan va Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanishi rejalashtirilgan chora-tad-birlar dasturida aks etadi.

*Davlat boshqaruvida har qanday o'zgarishning tabiiy yo'li-ravishi bo'ladi. Hujjatlar ma'lum muddatdan keyin bari-bir yangilanadi. Darsliklar qayta nashr etiladi. Ko'cha ko'rsatkichlari va dav-lat belgilari eskirganda almashtiriladi. Pasportlar muddati tugaganda yangisi*



Nizomiddin MAHMUDOV,  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi  
O'zbek tili, adabiyoti  
va folklori instituti direktori,  
filologiya fanlari doktori,  
professor

bazalari qaysi standartga tayanadi? Yangi avlod qanday imlo qoidasi asosida ta'lim oladi? Alifbo aynan shu savollarga javob berishi lozim.

"Yoshlar-ku, mayli, idroki tez, oson o'rganadi, yoshi ulug' fuqarolar nima qiladi?" degan savollarga ham duch kelamiz. Alifboga kiritilayotgan harflar katta yoshli avlod uchun ham be-gona emas: bu harflar 1929–1940 va 1993–1995-yillardagi o'zbek alifbo-lari tarkibida mavjud bo'lgan. Qolaversa, hududlardagi davlat tili bo'yicha malaka oshirish markazlarida, ommaviy axborot vositalarida aholi uchun alifbodagi yan-gilanishlarga oid saboqlar, ma'lumotlar berilishi tashkil etiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda endi bir paytning o'zida uchta alifbo (eski lotin, yangi lotin va kirill) parallel ravishda ishlatilishi haqidagi taxminlarni ham o'qiyapmiz. Albatta, norasmiy yozishmalarda har kim xohlagan alifbosidan foydalanishi mum-kin, bunga hech kim to'sqinlik qilolmay-di. Ammo davlat idoralarida ish yuritish, ta'lim-tarbiya va boshqa rasmiy maqom-ga ega jarayonlarda faqat qonun bilan tas-diqlangan alifbodan foydalaniladi.

Alifbomizdagi nuqsonlar tuzatilib, u yagona davlat standartiga aylangach, bosma nashrlar va rasmiy saytlarda-gi ikki xillikka chek qo'yish borasida ham tegishli takliflar tayyorlanmogda. Bir so'z bilan aytganda, milliy alif-bo – bu bir avlod uchun emas. U ka-mida keyingi yarim asr uchun qabul qilinadigan davlat standartidir. Shu bois bugungi muhokamalarda eng kat-ta xato – alifbo islohotini bir martalik xarajat sifatida ko'rishdir. Aslida uni kechiktirishning ham o'z bahosi bor. Har yili yangi darsliklar eski standart aso-sida chop etiladi. Har yili davlat axborot tizimlari mavjud muammolarga mos-lashtirib boriladi. Har yili yangi avlod mukammallashtirish qoidalarni o'rga-nishda davom etadi. Bu ham xarajat. Faqat u smetada emas, vaqtda, resursda va kelajak imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, bugungi tanlov "alif-boni o'zgartiramizmi yoki yo'qmi?" degan savol emas. Tanlov shundaki, biz muammoni bugun tabiiy va bosqich-ma-bosqich hal qilamizmi yoki uni yana bir necha o'n yil keyin xuddi shu holatda keyingi avlod zimmasiga yuklaymizmi? Chunki ba'zan eng katta xarajat – islohot emas, islohotni surunkali ravishda ortga surish bo'ladi.

(Gazeta.uz saytidan olindi.)

beriladi. Ya'ni bugun almashtiriladigan narsalar ertaga ham baribir almashtiri-lar edi.

Farq shundaki, ular navbatdagi yangi-lanish jarayonida yangi standart asosida tayyorlanadi, xolos. Shuning uchun "mil-liardlab qo'shimcha xarajat" haqidagi da'volar islohotning huquqiy mexanizmi-ni emas, uning atrofidagi taxminlarni aks ettiradi.

## DAVLAT STANDARTI

Aslida bugungi bahsning markazida pul emas, standart turibdi. Davlat har qanday sohada standart yaratadi. Elek-tron hukumat uchun ham, raqamli imzo uchun ham, kadastr uchun ham, avtomo-bil raqamlari uchun ham yagona qoida-lar belgilanadi. Alifbo ham ana shunday davlat standartidir.

Standartning vazifasi esa bugungi odatlarni himoya qilish emas, ertangi tizimni barqaror qilishdir.

Ko'pchilik "odamlar ko'nikib qol-gan", degan fikrni asos sifatida keltiradi. Ammo davlat siyosatini ko'nikish emas, maqsad belgilaydi.

Har qanday islohotning dastlabki bosqichida moslashish davri bo'ladi. Bu tabiiy jarayon. Ammo moslashish-ning mavjudligi islohotning noto'g'ri ekanini anglatmaydi. Eng qizig'i, alifbo islohotiga qarshi fikrlarning aksariyati tilshunoslik haqida emas. Ular asosan ehtimoliy noqulayliklar haqida.

So'nggi 10 yil ichida tilshunos olim-larimiz va tegishli soha vakillari alif-bodagi nuqsonlarni ilmiy asosda tuzatish bo'yicha tizimli ish olib bordi. Muhoka-malar, fikr almashuvlar jarayonida alifbo loyihasi takomillashdi. Ko'plab semi-narlar, anjumanlarda mavzuga doir savollarga asosli dalillar bilan javoblar berildi. Nihoyat alifboning yakuniy loyi-hasi shakllanib, Oliy Majlisga kiritildi.

## ASOSIY SAVOLLAR BOSHQACHA BO'LISHI KERAK

Davlat uchun asosiy savollar boshqa-cha bo'lishi kerak. Yigirma yildan keyin o'zbek tili raqamli platformalarda qanday ishlaydi? Ellik yildan keyin milliy kor-puslar, davlat arxivlari va ma'lumotlar

### TAKOMILLASHTIRILAYOTGAN HARFLAR

G' g' → Ğ ğ  
O' o' → Ö ö  
Sh sh → Ş ş  
Ch ch → Ç ç

### TAKOMILLASHTIRILGAN O'ZBEK ALIFBOSI LOYIHASI

|     | Bosma | Yozma | Talaffuzi     |
|-----|-------|-------|---------------|
| 1.  | A a   | Аа    | a             |
| 2.  | B b   | Бб    | be            |
| 3.  | D d   | Дд    | de            |
| 4.  | E e   | Ее    | e             |
| 5.  | F f   | Фф    | fe            |
| 6.  | G g   | Гг    | ge            |
| 7.  | Ğ ğ   | Ğğ    | ğe            |
| 8.  | H h   | Нн    | he            |
| 9.  | I i   | Ии    | i             |
| 10. | J j   | Йй    | je            |
| 11. | K k   | Кк    | ke            |
| 12. | L l   | Лл    | le            |
| 13. | M m   | Мм    | me            |
| 14. | N n   | Нн    | ne            |
| 15. | O o   | Оо    | o             |
| 16. | Ö ö   | Öö    | ö             |
| 17. | P p   | Пп    | pe            |
| 18. | Q q   | Ққ    | qe            |
| 19. | R r   | Рр    | re            |
| 20. | S s   | Сс    | se            |
| 21. | Ş ş   | Şş    | şe            |
| 22. | Ç ç   | Çç    | çe            |
| 23. | T t   | Тт    | te            |
| 24. | U u   | Уу    | u             |
| 25. | V v   | Вв    | ve            |
| 26. | X x   | Хх    | xe            |
| 27. | Y y   | Йй    | ye            |
| 28. | Z z   | Зз    | ze            |
| 29. | ,     | ,     | Tutuq belgisi |

## Dolzarb mavzu

# Alifboni emas, fikrlashni o'zgartiraylik!

52 yildan buyon ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan oliy toifali faxriy o'qituvchiman. Keyingi yillarda yangi alifbomiz ustida aylanayotgan muhokama va munozaralarda muqim bitta fikr, ya'ni lotin yozuviga asoslangan amaldagi o'zbek alifbosiga teginmaslik tamoyilini qat'iy himoya qilib kelmoqdaman. O'rni kelganda aytishim kerakki, nufuzli shaxslar siyosiy sharhlovchi sifatida alifboni isloh qilishni ma'qullab maqola yozib chop ettirishimni mendan juda iltimos qilishgan. Biroq men bu ko'rsatmani bajarmadim va o'z nomi bilan aytadigan bo'lsak, rad etganman. Nega desangiz, men bu masalaga sog'lom fikr nuqtayi nazar bilan yondashdim va tegishli xulosalar chiqardim. Bu borada menga hamfikir bo'lgan minglab kasbdoshlarim, ziyolilar va olimlar borligi ham ayni haqiqat. Yaqinda hamfikrim, kuyinchak inson Komil Jalilovning telegram kanalidagi bu masala ustida bildirgan fikrlari mening ko'zqarashim bilan tamoman hamohang kelganligi ajablanarli emas. Chunki hissiyotlarga berilmay, sovuqqonlik bilan sog'lom fikrlaydigan barcha mushitariylar biz bilan bir xil o'ylashiga shubham yo'q. Haqiqatan ham, ushbu alifbo bilan ishlagan uzoq yillarim davomida hozirgi yozuvda muammo nimada ekanligini va joriy lotin alifbosi qanday murakkabliklarni tug'dirayotganini sezmaganiman. Faqat undagi bitta kichik kamchilik – sirg'aluvchi “j” tovushini ifodalovchi alohida harf mavjud emasligi menga nuqson bo'lib tuyulgan. Shu ma'noda, qolgan barcha o'rinlarda Komil Jalilovning fikrlarini to'liq qo'llab-quvvatlayman. Yana shuni ta'kidlaymanki, yangi alifbo islohotini oldinga surayotganlar va Parlamentda ma'qullab berayotganlarning gaplarida ilmiy asoslangan ishonchli dalillar ko'rmadim. Aminmanki, ularning 99 foizi

\*\*\*

Daryo.uz nashrida jurnalist Shuhrat Shokirjonov maqolasi e'lon qilindi. Muallif alifbo islohotini qidiruv tizimlari, ma'lumotlar ombori yoki tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalariga moslashish zarurati bilan izohlaydi. Lekin negadir maqolani o'qib, menda alifbo “islohotchilari” uchun texnik muammolar sabab emas, shunchaki bahona, degan fikr yanada qat'iylashdi. Sababi:

1. Hozirgi alifboning asosiy muammosi – ma'lumotlar ombori, til korpuslari tuzish uchun muammoli jihati – o' va g' harflari bilan bog'liq. Maqolada aynan shu muammoni hal qilishning muqobil (alifboni o'zgartirmay) yo'llari izlandimi, qanday yechimlar ko'rildi va nega ular samarasiz, degan xulosaga kelindi – bu haqda hech qanday gap yo'q. Alifboni o'zgartirish haqidagi qonunni ma'qullaganlardan ham bu savolga javobni ko'rmadik.

2. Hatto o' va g' bilan bog'liq muammoni yechishning imkoni yo'q, faqat almashtirish kerak, deyilgan taqdirda ham nega sh va ch almashishi kerak, degan savolga javob yo'q. Muallifning o'zi sh va ch kompyuter tizimlari uchun muammo emasligini tan olmoqda va endi bular Unicode uchun ikkita alohida simbol ekanligi bilan izohlamogda. Lekin bular ikkita simbol ekanligi qidirish, saralash tizimlari va korpus lingvistikasi uchun ham muammo emas-ku! Hatto bu tovushlar faol(ko'p) ishlatilishi hisobga olinsa ham, sh va ch ikkita simbol bilan yozilgan matnlar kompyuter yoki server xotirasida s va g ga nisbatan hech

qancha ko'p joy olmaydi, SI tizimlarida ko'proq token ishlatmaydi. Shunday ekan, sh va ch ni almashtirish zarurati nimada? (Qog'ozda ko'proq sahifa egalashi muammo bo'lmasa kerak, chunki kitob chop etilayotganda varaqlar soni emas, bosma taboq muhim, sh va ch esa kitob hajmini bir bosma taboqqa oshirvormasa kerak?)

3. Shokirjonov ingliz tilidan farqli ravishda o'zbek tili asosan fonetik yozuv ekanligini aytib, sh va ch bitta harf bilan yozilishi “kerak”ligini shu bilan izohlamogda. Lekin, masalan, nemis tilida imlo ham fonetik yozuvga asoslanadi, so'zlar qanday yozilsa, shunday o'qiladi, lekin sh va ch uchta, hatto ki to'rtta harf bilan ifodalanadi(hatto millat va davlat nomida ham: *Deutsch, Deutschland*). Bu negadir nemis tilining dunyo tiliga aylanishiga ham, uning texnik tizimlarga to'laqonli integratsiyasiga ham xalal berayotgani yo'q. Bunday misollarni boshqa tillardan ham keltirish mumkin.

Qolaversa, sh va ch almashgani bilan, “bir tovush – bir harf” tamoyiliga taklif qilinayotgan alifboda ham amal qilinmaydi. Oddiy misol: “jurnal” va “jo'ra” – har xil tovush, bitta harf. Umuman, alifbo – fonetik transkripsiya emas, “bir tovush – bir harf” tamoyiliga amal qilinmasligi tilning rivojlanishiga va texnik tizimlarga integratsiya qilinishiga xalal bermaydi. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin: ingliz, fransuz, arab, xitoy tillari va hokazo.

4. Tutuq belgisi haqida to'xtalar ekan, muallif “uni qayta ishlash uchun

yangi alifbo bilan ishlamagan odamlar. Ular, nazarimda, birtorta ishonchli dalil ko'rsata olmadilar. Shu ma'noda, Komil Jalilovning quyidagi gaplariga to'liq qo'shilaman va ma'qullayman: “Alifbo jiddiy masala. Uni o'zgartirishda – men uchun bo'lganda ham – hayot-mamot darajasidagi oqlov bo'lishi kerak. Alifboni o'zgartirish juda mas'uliyatli ish bo'lib, avlodlar va mamlakat taqdiriga ta'sir etadigan, belgilaydigan narsa. U yuzaki kosmetik sabablarga asoslanib va yopiq eshiklar ortida qilinadigan ish emas, deb o'ylayman... Hammasini boshqatdan chop etmaymiz, 5–10 yil eski lotin yozuvda yashab yuramiz degan argumentning o'zi absurd. Demak, uch xil yozuvdagi “O'zbekiston” so'zi bilan yashar ekanmiz. Bu battar savodsizlikni yaratadigan narsa. O'zgarisa, aksincha hamma narsani zudlik bilan qayta chop etish kerak. Aks holda, yanada battar sharoitda, uch xil yozuvda “vaqtincha” yashab yuramiz. 30 yil kirillda yozib yurgan-dek... Xullas, o'sha gap. Alifboni bu alifbodan amalda foydalanmaydiganlar yoki shunchaki ijroni yopish uchun, yoki kimdir davlat nomidagi birinchi harf har xil yozilganini tanqid qilgani uchun, yoki kirillcha fikrlashdan(mindset) chiqib keta olmayotgani uchun o'zgartirmoqchi. “Hayot-mamot” darajasidagi sabab u yoqda tursin, biron-bir jiddiyroq, ilmiy asoslangan argument keltirilgani yo'q”.

P.S. Men oliy toifali ona tili va adabiyot muallimi sifatida, alifbomizni takomillashtirish maqsadida, hozir egasiz bo'lib turgan “Cc” harfini sirg'aluvchi “j” tovushini ifodalash uchun alifboga kiritishni taklif qilaman.

Xudoyberdi KOMILOV,  
Urgut tumanidagi

97-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

alohida qoidalar (istisnolar) yaratish texnik jihatdan ancha oson” deydi. Xo'p, baribir istisnolar yaratilar ekan, “s+h” alohida tovushlar sifatida talaffuz qilinadigan so'zlar uchun nega istisnolar yaratish mumkin emas? Bunday so'zlar 10 ta ham chiqmaydi shekilli(men faqat 4 tasini eslay oldim). Harqalay, bunday so'zlar tutuq belgisi ishlatiladigan so'zlarga nisbatan karrasiga kam-ku?

Shunday ekan, alifbo “islohotchilari” uchun asosiy maqsad – o'zbek tilining texnik tizimlar bilan integratsiyasi emas. Bu bahona xolos. Aks holda:

a) o' va g' masalasini hal qilishning muqobil yo'llari izlanardi;

b) aynan shu harflar bilan bog'liq muammolarni yechishning ularni almashtirishdan boshqa yo'li qolmagan taqdirda – faqat shu ikki harf bilan cheklanishardi.

Filologlar ta'kidlaganidek, inson o'qishda ravonlikka(fluency) erishgandan keyin uning miyasi alohida harflarni o'qimaydi, balki so'zlarni butunicha qabul qiladi. Va bunda aynan undoshlar so'zning vizual “skeleti” bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, undoshlar so'zni tanishimiz uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi, miyamiz unlilarni undoshlarga tayangan holda joy-joyiga qo'yib chiqadi. Masalan, konsonant (abjad) alifbolar – arab, fors, xalqimiz ming yillar davomida ishlatgan eski o'zbek yozuvlari ham shu tamoyil asosida ishlaydi: so'zning “skeleti”ni tashkil qiladigan undoshlar yozuvda ifodalanadi, unlilar yoki diakritik belgilar bilan beriladi, yoki tashlab ketiladi: miya o'zi “qo'yib” oladi.



Komil JALILOV

Yoki yana bir misol. Mana bu ikki qatorni solishtirib ko'ring:

Bu – mktb.

Bu – aa.

Birinchi qatorda “bu – maktab” deyilayotganini miya tushunib oladi, ikkinchi qatorning ma'nosini esa chiqara olmaydi, chunki unda “skelet” yo'q.

Shunday ekan, alifboda sh va ch ning o'zgarishi – shunchaki to'rtta harf o'zgarishi emas. So'zlarning skeletini tashkil qiladigan undoshlar o'zgariyapti, bo'lib ham “islohot” tarafdorlari ta'kidlaganidek, faol, ko'p qo'llaniladigan undoshlar. Shunday ekan, istaysizmi-yo'qmi, miya buni boshqa alifbo sifatida qabul qiladi, unga moslashishi qiyin bo'ladi. Demak, Shuhrat Shokirjonov o'z maqolasida yozgan “ha, modomiki, o' va g' ni o'zgartir ekanmiz, birato'la sh va ch ni o'zgartira qolaylik” argumenti ish bermaydi, chunki undoshlarning almashishi so'zlarning vizual skeletini o'zgartiradi, miya uni boshqa alifbo sifatida ko'radi va moslashishi qiyin kechadi (masalan, “sho'rtumshuq” so'zining “sho'rtumshuq” shakliga o'zgarishini miya katta muammo sifatida ko'rmaydi, lekin “sho'rtumshuq”qa o'zgarishi qiyinchilik tug'diradi. chunki so'zning “skeleti”, miya tanishiga yordam beradigan tayanch nuqtalari soni va shakli o'zgariyapti).

Ba'zilar esa undoshlar, ya'ni so'zning skeleti o'zgarishini umuman qabul qilmasligi ham mumkin. Natijada “budgetga og'irlik bo'lmasin” deb hujjatlar, ko'chalar va jamoat joylaridagi yozuvlar, darsliklar, kitoblarda parallel amaldagi lotin va yangi lotin alifbosining ishlatilishi miyani battar charchatadi. Bu degani – hozirgi islohot lotin yozuviga o'tish masalasini uzil-kesil hal qilish o'rniga tilning va bu tildan foydalanuvchilarning ikki emas, uch alifbo(kirill va ikkita lotin) o'rtasida sarson bo'lishiga olib keladi.

Shuning uchun, mening fikrimcha:

1) birinchi navbatda o' va g' bilan bog'liq texnik muammoni texnik yo'llar bilan(alifboga tegmasdan) hal qilish yo'llarini jiddiy o'rganish kerak;

2) agar bu harflarni o'zgartirmaslikning hech ham iloji topilmasa, faqat shu harflarni vizual jihatdan amaldagi yozilishiga yaqinroq variantlarga almash-tirish masalasini ko'rish kerak – shunda miya uni yangi alifbo sifatida qabul qilmaydi, darsliklar, hujjatlar va boshqa narsalarning zudlik bilan almashmasligi muammo tug'dirmaydi va amalda-gi alifbo, unda yaratilgan ma'lumotlar bilan uzviylik yo'qolmaydi.



Sinab ko'ring

# Og'zaki nutqni rivojlantirish strategiyalari

Bugungi kunda o'quvchilar nutqida talaffuz xatolari, so'zlarning noto'g'ri urg'u bilan aytilishi, intonatsiya va ohangning yetarlicha bo'lmashligi keng tarqalgan. Bunday xatolar nafaqat nutqni tushunishni qiyinlashtiradi, balki o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini kamaytiradi va muloqot jarayonini sustlashtiradi. Shu sababli, o'quvchilarda fonetik madaniyatni tizimli ravishda shakllantirish ona tili ta'limining muhim vazifalaridan biridir.

Fonetik madaniyatni shakllantirish talaffuz va nutq madaniyatini rivojlantiradi, muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi va o'quvchining tilni ongli va ijodiy ravishda egallashini ta'minlaydi. Shu sababli, ona tili darslarida fonetik madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

## Fonetik qoidalarni o'rganish metodikasi

Fonetik qoidalarni o'rganish til ta'limida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, nutqni ravon va tushunarli ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda til madaniyatini shakllantiradi. Fonetik qoidalarni o'rganish metodikasi o'quvchilarning yoshi, til darajasi va nutq ko'nikmalariga mos ravishda tashkil etilishi lozim.

Fonetik qoidalarni o'rgatishda birinchi qadam – tovushlarni aniqlash va ularning farqlarini tushuntirishdir. O'quvchilar unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, urg'u va intonatsiya qoidalarni tushunishni mashq qiladilar. Bu jarayonda tovushlarni eshitish, takrorlash va farqlashga asoslangan mashqlar qo'llaniladi. Masalan, “ota” va “ota” so'zlaridagi tovush farqlarini aniqlash mashqlari talaffuzni o'rganishning samarali usullaridan biridir.

Ikkinchi qadam – so'z va gap talaffuzini mashq qilishdir. O'quvchilarga alohida so'zlarni, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri aytish mashqlari beriladi. Bu jarayonda urg'u va intonatsiyaga e'tibor qaratiladi, talaffuzdagi xatolar aniqlanadi va tuzatiladi. Shu tarzda o'quvchilar nutqni tabiiy ritm va ohang bilan ifodalay oladi. Uchinchidan, interaktiv va ijodiy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Fonetik o'yinlar, rolli mashqlar, audio va video materiallar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va fonetik qoidalarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Masalan, tovushlar bo'yicha krossvordlar, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bo'yicha viktorinalar va dramatizatsiya mashqlari fonetik qoidalarni mustahkamlashda foydalidir.

Shuningdek, fonetik qoidalarni o'rganishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv muhimdir. Tovushlardan so'z va gap talaffuziga, gap talaffuzidan nutq ritmi va ohangiga qadar bo'lgan jarayonlar o'quvchilarga asta-sekin o'rgatiladi. Bu esa fonetik qoidalarni mustahkam o'zlashtirish va nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Talaffuz xatolarini aniqlash va tuzatish usullari – o'quvchilarda talaffuz madani-

yatini shakllantirish, nutqni ravon va tushunarli qilish, shuningdek, tilni ongli egallash jarayonini samarali qilishning asosiy vositasidir.

Tinglab tushunish va talaffuz mashqlari muntazam va tizimli ravishda bajariishi o'quvchi nutqini tabiiy, tushunarli va ifodali nutqqa aylantiradi. Shu bilan birga bu mashqlar o'quvchining tilga qiziqishini oshiradi, so'z boyligini kengaytiradi va og'zaki muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Tinglab tushunish va talaffuz mashqlari o'quvchilarda til madaniyatini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Shu sababli ona tili darslarida bu mashqlarga muntazam e'tibor qaratish zarur.

## Fonetik o'yinlar va krossvordlar

Fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlashda fonetik o'yinlar va krossvordlar samarali metodlardan hisoblanadi. Bu usullar o'quvchilarning talaffuzini yaxshilash, unli va undosh tovushlarni to'g'ri aytish, urg'u va intonatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Fonetik o'yinlar** – bu o'quvchilarning faoliyatini rag'batlantiruvchi, qiziqarli va interaktiv mashqlardir. Ular orqali o'quvchilar talaffuzni mashq qiladi, tovushlarni ajratadi, so'zlar va bo'g'inlarni to'g'ri talaffuz qiladi. Masalan:

**“Tovush top” o'yini** – o'quvchilarga turli tovushlar beriladi va ular so'z ichidagi shu tovushlarni aniqlashga harakat qiladi.

**“So'zlarni qo'shib ayt” o'yini** – o'quvchilar berilgan so'zlarni ketma-ketlikda to'g'ri aytadi va talaffuzdagi xatolarini tuzatadi.

**“Bo'g'inlar musobaqasi”** – so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, kim tez va to'g'ri aytadi, degan formatda o'yin o'tkaziladi.

Krossvordlar esa talaffuz va fonetik qoidalarni mustahkamlashning ajoyib usuli hisoblanadi. Krossvordlar orqali o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi, ularning ma'nosini aniqlaydi va nutq boyligini oshiradi. Masalan, krossvorddagi savollar so'zning birinchi tovushi bilan boshlanishi yoki so'z bo'g'inlariga asoslangan bo'lishi mumkin. O'quvchi to'g'ri so'z topib, uni talaffuz qiladi va shu orqali fonetik xatolarini tuzatadi.

Fonetik o'yinlar va krossvordlarning asosiy afzalligi shundaki, ular o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, mashqlarni interaktiv qiladi va talaffuzni mustahkamlash jarayoni samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga bu metodlar nutq madaniyatini shakllantirish va o'quvchining muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Til o'rganishda talaffuzni rivojlantirishning muhim qismi – bu og'zaki talaffuzni baholashdir. Baholash o'quvchining nutqini tizimli ravishda kuzatish, xatolarini aniqlash va uni to'g'ri talaffuzga yo'naltirish imkonini beradi. Ona tili fanida og'zaki talaffuzni baholash mezonlari aniq va tushunarli bo'lishi lozim, chunki ular o'quvchining talaffuz madaniyati va nutq ko'nikmalarini shakllantiradi.

## Fonetik qoidalar va talaffuzni o'qitishda samarali metodlar

Fonetik qoidalar va to'g'ri talaffuzni o'rgatishda samarali metodlar:

Takrorlash va model ko'rsatish – o'qituvchi talaffuz qoidalarni namoyish qiladi va o'quvchilar ularni takrorlaydi. Bu metod o'quvchilarda to'g'ri talaffuz va nutqni ravon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Fonetik o'yinlar va mashqlar – tovushlarni ajratish, urg'u va stressni to'g'ri qo'yish mashqlari o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi, talaffuzni mustahkamlaydi va mashqlarni qiziqarli qiladi.

Monolog va dialog mashqlari – o'quvchilar turli vaziyatlarda o'z nutqlarini ifodalaydi. Bu metod talaffuz, intonatsiya, urg'u va nutq ravonligini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar va dramatizatsiya – o'quvchilar turli rollarda sahnada nutq so'zlaydilar, bu talaffuzni mustahkamlash, nutqni tabiiylashtirish va fonetik xatolarni tuzatish imkonini beradi.

Multimedia vositalaridan foydalanish – audio va video materiallar o'quvchilarga talaffuzni eshitish, intonatsiya va urg'uni solishtirish, so'z boyligini oshirish imkonini beradi. Bu metod zamonaviy va interaktiv bo'lib, talaffuzni samarali rivojlantiradi.

Individual yondashuv – har bir o'quvchining talaffuzdagi xatolarini aniqlab, unga mos mashqlar va tavsiyalar berish. Shu yo'l bilan o'quvchi talaffuzni mustahkamlash va nutqni mukammal qilish imkoniga ega bo'ladi.

Baholash va tahlil qilish – talaffuz va fonetik ko'nikmalarni baholash orqali o'quvchining rivojlanish darajasi aniqlanadi va keyingi mashqlar shunga moslashtiriladi. Bu metod samaradorlikni oshiradi va o'quvchi uchun o'z-o'zini nazorat qilish imkonini yaratadi.

O'quvchilarning fonetik rivojlanishini tizimli baholash va tahlil qilish, mustaqil ishlash va uy vazifalarini samarali tashkil etish, individual yondashuvni qo'llash talaffuzni mukammallashtirishning muhim shartlaridir. Bu jarayon o'quvchining o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini oshiradi, mustaqil fikrlash va nutqni boyitishga yordam beradi.

Kelajakda fonetik qoidalar va talaffuzni o'qitish metodikasi yangi texnologiyalar, interaktiv platformalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar orqali yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Muyassar ERGASHEVA,  
Chust tumanidagi  
67-maktabning ona tili va  
adabiyot fani o'qituvchisi

*Bugun alifbo masalasi filologlarning ichki bahsi emas. Bu – o'zbek tilining sun'iy intellekt, qidiruv tizimlari va raqamli texnologiyalar bilan qanday ishlashi haqidagi masala. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini takomillashtirish bo'yicha qonun loyihasi muhokamasi davom etar ekan, keng ko'lamlı qo'llab-quvvatlash bilan birga, bildirilayotgan ayrim e'tirozlar ham alohida tahlilni taqozo qiladi.*

Eng avvalo ta'kidlab o'tish kerakki, alifbo islohoti bo'yicha bugun muhokama qilinayotgan loyiha bir kabinetda bir necha kunda yozilgan hujjat emas. Ayrimlarning nazdida go'yoki alifbo bilan bog'liq qonun loyihasi shoshilinch tarzda, tor doirada qabul qilingandek. Holbuki bu masala yetti-sakkiz yil davomida obdon jamoatchilik muhokamasidan o'tdi. Ishchi guruh tomonidan turli variantlar jamoatchilikka taqdim etib borildi. 2021-yilda hattoki Normativ huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida xalq muhokamasiga qo'yildi.

Shundan so'ng yana turli takliflar yangradi, tilshunoslar bilan dasturchilar bahslashishdi, jurnalistlar bilan nashriyotchilar tortishishdi, turli alifbo variantlari taklif qilindi va rad etildi. Faqat shundan keyingina nisbatan muvozanatli yechimga kelindi. Demak, bugungi kunda Senatga jo'natilgan qonun loyihasi – shoshma-shosharlik mahsuli emas, balki uzoq davom etgan ilmiy va amaliy izlanishlarning mantiqiy yakunidir.

## Nega aynan hozir?

Ko'pchilikda tabiiy savol tug'iladi: agar amaldagi lotin alifbosi 30 yildan ziyod vaqt mobaynida qo'llanib kelinayotgan bo'lsa, nima uchun uni aynan hozir takomillashtirishga ehtiyoj tug'ildi?

Javob oddiy: dunyo o'zgardi.

1993-yilda lotin alifbosi qabul qilganda internet endigina rivojlanayotgan, qidiruv tizimlari ommalashmagan, sun'iy intellekt, elektron hukumat, ulkan ma'lumotlar(Big Data) yoki tabiiy tilni qayta ishlash(NLP) kabi texnologiyalar esa hali hayotimizga kirib kelmagan edi. O'sha paytda asosiy vazifa – o'zbek tilini lotin yozuviga o'tkazish edi. Bu vazifa asosan uddalandi.

Bugun esa talablar butunlay boshqacha. Til nafaqat insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi, balki kompyuterlar ham qayta ishlaydigan ma'lumotlar tizimiga aylandi. Davlat xizmatlari raqamlashmoqda, elektron arxivlar kengaymoqda, qidiruv tizimlari milliardlab hujjatlarni indekslamokda, sun'iy intellekt esa o'zbek tilida matn yaratish, tarjima qilish va tahlil qilishni o'rganmoqda.

Shunday ekan, yozuv tizimiga qo'yiladigan talab ham o'zgardi. Ilgari inson uchun qulaylik birinchi o'rinda turgan bo'lsa, bugun bu bilan birga, kompyuter uchun ham aniq, izchil va bir xil qoidalariga asoslangan yozuv zarur. Chunki har bir noaniqlik – turlicha apostrof, digraf yoki bir xil so'zning bir nechta yozilish varianti – raqamli tizimlar uchun qo'shimcha ishlov, qo'shimcha vaqt va qo'shimcha xarajat degani.

Demak, alifboni takomillashtirish ehtiyoji kecha paydo bo'lgan emas. Uni XXI asr texnologiyalari tug'dirdi. Bahs-munozaralar ham to'rtta harf emas,

# ALIFBO ISLOHOTI: gap to'rtta harf ustida emas

o'zbek tilining raqamli kelajakda qanchalik samarali yashay olishi haqidadir.

Shu ma'noda alifbo islohotini o'tmish bilan emas, kelajak bilan bog'liq qaror sifatida qabul qilish darkor. Chunki XX asr yozuvni odam uchun qulay qilishni talab qilgan bo'lsa, XXI asr yozuvni ham inson, ham kompyuter uchun tushunarli qilishni talab qilmoqda. Bugungi islohotning asl sababi aynan shunda.

## "Islohot kirillcha tafakkur mahsuli?"

"Lotin alifbosi islohotining izohi kirill alifbosida yozilganligi ham shuni ko'rsatadiki, bu qonunlarni ishlab chiqayotgan odamlar hali ham kirill alifbosida o'y-lashadi, o'qishadi, yozishadi va uning paradigmasida fikrlashadi. Parlamentdagi aksar qonun chiqaruvchilar uchun kirill alifbosi ularning "kognitiv makoni" bo'lib qolmoqda. Ular uchun bitta tovush bitta aniq vizual belgiga teng bo'lgan yozuv "to'g'ri" alifbodir", deb yozadi ta'lim sohasida ko'plab chiqishlar qilib turadigan publitsist **Komil Jalilov**.

Biroq bu e'tiroz, avvalo, argumentning mazmuniga emas, uning taqdim etilish shakliga qaratilgan.

Infografikaning kirill yozuvida tayyorlangani islohotning noto'g'riligini isbotlamaydi. Bu faqat auditoriyani hisobga olgan kommunikatsiya usuli, xolos. Bugungi O'zbekistonda millionlab fuqarolar hanz kirill yozuvida bemalol o'qiydi, yozadi. Buning sabablaridan yana biri aynan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining noqisligi, murakkabligi bo'lsa ajab emas. Shuning uchun tushuntirish materiallarini ular o'rganib qolgan qulay yozuvda tayyorlash tabiiy hol.

Qolaversa, argumentning shakli emas, mazmuni muhokama mavzusi qilinishi kerak.

## "Bir tovush – bir harf" prinsipi kirill yozuviga xos?

Yo'q. Bir tovush – bir harf prinsipi kirill yozuvi uchungina xos emas. Bu fonologiyaning klassik prinsipi. Mazkur tamoyil fonetika va orfografiyaning umumiy nazariyasiga mansub. Bugungi kunda turk, ozarboyjon, turkman, fin, chex, slovak va yana o'nlab tillarda aynan shu prinsip asosida yozuv tizimi qurilgan. Hatto IPA(International Phonetic Alphabet) ham aynan shu prinsipga qurilgan.

**Digraflar-chi, dersiz?** Chindan ham dunyoda **sh, ch, th, ph, gh, ng** kabi digraflardan foydalanadigan tillar ko'p. Ammo bundan "digraflar barcha tillar uchun eng yaxshi yechim" degan xulosa kelib chiqmaydi.

Demak, munozara "digraf bo'lishi kerakmi?" degan savol ustida qurilishi kerak emas. Asosiy savol – **o'zbek tili uchun qaysi yechim qulayroq?**

Tanqidchilarning yana bir dalili: ingliz tilida ham digraflar juda ko'p, shunga qaramay u sun'iy intellektning asosiy tiliga aylangan.

Bu ham chalg'ituvchi argument.

Chunki ingliz tili alifbosi fonetik yozuv emas. Unda **through, though, rough** kabi yuzlab istisnolar bor.

Ingliz tili bugun sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarning asosiy tiliga aylangani uning imlosi mukammal ekani uchun emas. Bunga ingliz tilida yaratilgan ulkan ilmiy meros, trillionlab sahifalik raqamli kontent, dunyoning yetakchi universitetlari, AT kompaniyalari va texnologik sanoatining ustunligi sabab bo'lgan. Imlo murakkabligi hech qachon uning afzalligi sifatida ko'rilmagan, aksincha, tilshunoslarning o'zi ingliz orfografiyasini dunyodagi eng murakkab yozuv tizimlaridan biri deb hisoblaydi.

Shunday ekan, ingliz tilidagi kamchiliklarni boshqa tillar uchun namuna sifatida ko'rsatish va tabiatan uzoq tilning "to'n"ini milliy yozuvimiz uchun eng munosib bichim sifatida taqdim qilish ilmiy jihatdan nechog'lik asosli?!

## Kompyuter uchun Sh va \$ o'rtasida farq yo'qmi?

Jalilov o'z postida kompyuter uchun bitta tovush nechta harf bilan yozilishining ahamiyati yo'qligini ta'kidlaydi. Uning bu fikri qisman to'g'ri, qisman esa noto'g'ri.

Ha, kompyuter O' va G' dan farqli o'laroq, Sh va Ch ni o'qiy oladi. Ammo Sh, Ch harf birikmalari va \$ \$, Ç ç harflari birdek barobar emas.

UNICODE nuqtayi nazaridan \$ – bitta kod nuqtasi, **Sh** esa ikki mustaqil belgidan iborat ketma-ketlikdir.

Bir qarashda bu farq ahamiyatsizdek tuyulishi mumkin. Ammo millionlab satr matnini indekslash, saralash va qayta ishlashda bu farq amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko'plab tillar imkon qadar bitta tovushni bitta belgi bilan ifodalashga intiladi. Bu, ayniqsa, elektron lug'atlar, korpus lingvistikasi va matnlarni avtomatik tahlil qilishda seziladi.

Darhaqiqat, bugungi lotin yozuvidagi eng katta texnik muammo – O' va G' harflarining turli apostroflar bilan yozilishidir. Biroq bundan **Sh** va **Ch** harflarini umuman o'zgartirish kerak emas, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Agar yozuv tizimi bir marta takomillashtirilayotgan bo'lsa, mutaxassislar kelajakda yana islohot o'tkazishga ehtiyoj qolmasligi uchun barcha muammoli yechimlarni bir bosqichda ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblamogda.

## "Tutuq belgisi qolsa, islohotdan ne foyda?"

Bu e'tiroz bir qarashda mantiqli ko'rinadi. Darhaqiqat, tutuq belgisi ham kompyuter tizimlari uchun alohida belgi hisoblanadi. Shunday ekan, "u qolayotgan bo'lsa, O' va G' ni o'zgartirishdan nima naf?" degan savol tug'ilishi mumkin. Ammo bu yerda muammoning ko'lamini hisobga olinishi lozim. Bu savol mantig'ida "mukammal yechim bo'lmasa, umuman yechim kerak emas" degan xato yotadi.

O' va G' harflari o'zbek tilida eng

faol qo'llanadigan harflardan hisoblanadi. Minglab so'zlar, joy nomlari, familiyalarda va rasmiy hujjatlarda aynan shu harflar uchraydi. Eng muhimi, amaliyotda ular turli apostroflar bilan yoziladi. Natijada bitta so'zning bir necha xil yozilish variantlari paydo bo'ladi va dasturchilar, qidiruv tizimlari hamda ma'lumotlar bazalari ularning barchasini hisobga olishga majbur bo'ladi.

Tutuq belgisi esa mutlaqo boshqa hodisa. U mustaqil harf emas va qo'llanish doirasi ancha tor. Shuning uchun uni qayta ishlash uchun alohida qoidalar(istisnolar) yaratish texnik jihatdan ancha oson.

Boshqacha aytganda, istisno minglab so'zlar uchun emas, nisbatan kam uchraydigan holatlar uchun yoziladi. Dasturiy ta'minotda ham aynan shunday yondashuv qo'llanadi: eng ommaviy holatlar standart qoidalar bilan hal qilinadi, kam uchraydigan holatlar esa alohida qoidalar orqali boshqariladi.

Shu sababli tutuq belgisi saqlanib qolayotgani O' va G' harflarini takomillashtirishning ahamiyatini yo'qqa chiqarmaydi. Aksincha, yozuv tizimidagi eng katta texnik muammo bartaraf etiladi, qolgan kamroq uchraydigan holatlar esa alohida algoritmlar orqali boshqarilishi mumkin.

Chunki muhandislikda ham, dasturiy ta'minotda ham tizimlar odatda 100 foiz emas, balki eng katta muammolardan boshlab bosqichma-bosqich takomillashtiriladi.

## Korpus lingvistikasidagi ko'rinmas muammo

Alifbo islohoti haqidagi bahslarda yana bir muhim jihat deyarli tilga olinmayapti. Bu – korpus lingvistikasi va til resurslarini yaratish masalasi.

Bugun dunyoning ko'plab universitetlari va ilmiy markazlari tillarning elektron korpuslarini shakllantirmoqda. Korpus – bu millionlab, ba'zan yuz millionlab so'zlardan iborat raqamli matnlar jamlanmasi bo'lib, u sun'iy intellektni o'qitish, elektron lug'atlar yaratish, imloni takomillashtirish, avtomatik tarjima va til bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Endi tasavvur qiling, shunday korpusda O'zbekiston so'zi turli manbalarda **O'zbekiston, O'zbekiston, O'zbekiston** kabi bir nechta shaklda uchraydi. Inson uchun bularning barchasi bir xil so'z. Ammo kompyuter ularni turli belgilar ketma-ketligi sifatida qabul qiladi. Natijada ma'lumotlarni tozalash (normalizatsiya – bir xil shaklga keltirish) va tahlil qilish uchun qo'shimcha algoritmlar ishlab chiqishga to'g'ri keladi.

Bu nafaqat sun'iy intellekt, balki elektron lug'atlar, imlo tekshiruvchilari, qidiruv tizimlari va mashina tarjimasini ham murakkablashtiradi. Shuning uchun gap faqat bitta harfni qanday yozish haqida ketmayapti. O'zbek tili uchun sifatli raqamli korpus yaratish va uni kelajak texnologiyalari bilan uyg'un ishlaydigan holga keltirish ham ko'zlanmogda.



Shuhrat SHOKIRJONOV,  
jurnalist

## Google nega "tushunadi"?

"Xato belgi ishlatilgan bo'lsa ham Google baribir topaveradi-ku", degan e'tiroz ham tez-tez yangraydi. Bir qarashda bu gap to'g'ridek ko'rinadi. Ammo qidiruv tizimining so'zni topa olishi muammo yo'qligini emas, aksincha, uni hal qilish uchun qo'shimcha resurs sarflanayotganini anglatadi.

Masalan, foydalanuvchi **Gafurov, G'afurov, G'afurov, G'afurov** deb qidirishi mumkin. Inson uchun bular bitta familiya. Ammo kompyuter uchun har biri turli belgilar ketma-ketligidan iborat alohida satr hisoblanadi.

Shuning uchun Google kabi zamonaviy qidiruv tizimlari qidiruvdan oldin normalizatsiya jarayonini amalga oshiradi. Buning uchun maxsus algoritmlar, qoidalar va hisoblash resurslari ishlatiladi. Aks holda tizim foydalanuvchi kiritgan variant bilan ma'lumotlar bazasidagi variantni bir-biriga bog'lay olmaydi.

Foydalanuvchi bu jarayonni ko'rmaydi. Ammo har bir qo'shimcha algoritim ortida hisoblash quvvati, vaqt va xarajat turadi.

Albatta, bunday muammolarni dasturiy yo'l bilan hal qilish mumkin. Lekin muhandislikda har doim bitta qoida bor: muammoni dasturda emas, uning manbasida hal qilish arzonroq va samaraliroq. Agar yozuv tizimining o'zi izchil bo'lsa, qidiruv tizimiga ortiqcha normallashtirish qoidalarini yozishga ehtiyoj kamayadi.

Shu ma'noda alifboni takomillashtirish, agar raqamlashtirish nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, Google yoki sun'iy intellekt ishlay olmayotgani uchun emas, balki ularni o'zbek tili bilan ishlashda ortiqcha yukdan xalos qilish uchun kerak. Bu esa kelajakda qidiruv tizimlari, davlat axborot bazalari va raqamli xizmatlarning tezkorligi hamda aniqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muxtasar qiladigan bo'lsam, aslida bahs to'rtta harf haqida emas. Gap o'zbek tilining kelgusi o'n yilliklarda qanday yozuv bilan yashashi haqida ketmogda. Til – faqat madaniyat emas, u endi texnologiya hamdir. Demak, alifbo ham nafaqat filologlar, balki dasturchilar, sun'iy intellekt muhandislari, noshirlar va millionlab foydalanuvchilarning ehtiyojidan kelib chiqib baholanishi kerak.

Har qanday alifbo, eng avvalo, insonga xizmat qilishi kerak. XXI asrda esa odam bilan birga kompyuter ham shu alifboda "o'qiydi", "yozadi". Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bugungi islohot shunchaki ayrim harflarni almashtirish emas, balki o'zbek tilini raqamli davrga moslashtirish yo'lidagi muhim va zaruriy qadam sifatida baholanmog'i lozim.

(Daryo.uz saytidan olindi.)



## Mening tajribam



Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi o'quvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'radi. Endilikda dars jarayoni faqat ma'lumot uzatish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishiga yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bu jarayon o'yin, harakat, vizual vositalar va interaktiv metodlar orqali amalga oshirilsa, samaradorlik yanada ortadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari boshlang'ich ta'limning asosiy tayanch fanlari hisoblanadi. Ushbu fanlar orqali o'quvchilar imloviy savodxonlik, to'g'ri talaffuz, matn bilan ishlash, mazmunni anglash, fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash kabi muhim ko'nikmalarni egallaydi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, barcha o'quvchilar bir xil tezlikda o'zlashtira olmaydi. Ayrim o'quvchilarda so'zlarni noto'g'ri yozish, bo'g'inga ajratishda xatolar, tovush va harfni farqlay olmaslik, matn mazmunini yuzaki tushunish kabi muammolar kuzatiladi. Bu esa dars jarayonini yanada samarali tashkil etishni, interaktiv va harakatli metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat, o'yin va qiziqarli topshiriqlarni yaxshi ko'radi. Agar dars faqat daftar va doska bilan cheklansa, ular tez zerikadi. Ammo dars jarayonida o'yinli metodlar, jamoaviy topshiriqlar va ijodiy vazifalar qo'llansa, o'quvchilar darsda faol ishtirok etadi va bilim mustahkamroq o'zlashtiriladi.

Ona tili darslari bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun juda qulay maydon hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, aralashtirilgan bo'g'inlardan so'z tuzish topshirig'ini berish mumkin. Bu yerda ular bir-biri bilan maslahatlashadi, bahslashadi, fikr almashadi. Natijada nafaqat so'z tuzish ko'nikmasi, balki jamoada ishlash malakasi ham rivojlanadi. Yoki rasm asosida hikoya tuzish topshirig'i beriladi. Har bir o'quvchi o'z tasavvuriga ko'ra voqeani davom ettiradi. Bu jarayonda u erkin fikrlaydi, ijod qiladi, gap tuzadi. Bu esa kreativlik va nutqiy faollikni oshiradi. Xato yozilgan so'zlarni topish metodida esa o'quvchi fikr yuritadi, taqqoslaydi, tahlil qiladi. Qaysi variant to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanini aniqlash orqali tanqidiy fikrlash shakllanadi. Demak, oddiy ko'rinadigan topshiriq ortida katta pedagogik maqsad yotadi.

Interaktiv metodlarda o'qituvchi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Eng muhimi, o'quvchi darsda zerikmaydi. U ishtirok etadi, fikr bildiradi, harakat qiladi. Shunda bilim ham chuqurroq o'zlashtiriladi.

## “TAHRIRCHI” METODI

“Tahrirchi” metodi o'quvchilarni matn va so'zlar ustida ongli ishlashga o'rgatishga qaratilgan interaktiv usuldir. Bu metodda o'quvchi oddiy ijrochi emas, balki “tahrirchi” rolini bajaradi. Ya'ni u berilgan so'z yoki gapdagi xatoni aniqlaydi, tuzatadi va nima sababdan xato bo'lganini tushuntiradi. Mazkur metodning asosiy g'oyasi – o'quvchini xatoni ko'ra olish, uni tahlil qilish va to'g'ri variantni asoslab bera olishga o'rgatishdir. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat imlo qoidalarini eslaydi, balki ularni amalda qo'llashni ham o'rganadi.

O'qituvchi doska, slayd yoki kartochkaga ataylab xato yozilgan so'z yoki gaplarni taqdim etadi. O'quvchilar berilgan materialni diqqat bilan o'qiydi. Har bir o'quvchi o'zicha xatoni aniqlaydi va daftarga to'g'ri variantini yozadi.

Keyin birgalikda muhokama qilinadi:

- Xato qayerda?
- Nima sababdan xato?

# FIKRLAYMIZ,

## (Ona tili va o'qish)

- Qaysi qoida buzilgan?

Jarayonni yakka tartibda, juftlikda yoki guruh shaklida tashkil etish mumkin.

Doskaga quyidagi so'zlar yoziladi:



Maktab  
Oyila  
Kitop  
Toshkent

Muhokama davomida o'quvchilar “b” va “p” tovushlari, unli tovush tushib qolishi yoki noto'g'ri yozilishi kabi holatlarni izohlaydi.

“Tahrirchi” metodini quyidagi bosqichlarda qo'llash maqsadga muvofiq:

Mustahkamlash bosqichida – yangi o'tilgan imlo qoidasini amalda tekshirish uchun;

takrorlash darslarida – o'tilgan mavzularni umumlashtirish uchun;

nazoratdan oldin – o'quvchilarni imloviy jihatdan hushyor qilish maqsadida;

uy vazifasini tekshirish jarayonida – o'zaro tahrir shaklida.

## “UZUM” METODI



musiqa

“Uzum” metodi boshlang'ich sinf o'quvchilari-ning bo'g'in asosida so'z tuzish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladigan ijodiy metodlardan.

Bu metodda uzum novdasi ramziy shaklda tasvirlanadi va novdaning markaziy qismiga ma'lum bir bo'g'in yoziladi. Uzum donalari esa o'quvchilarning topgan so'zlari bilan to'ldiriladi. Ya'ni novdaga yozilgan bo'g'in qatnashgan so'zlar donalarga yozib boriladi.

Metodning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi berilgan bo'g'inni so'z tarkibida ongli ravishda aniqlaydi va uni turli so'zlar bilan bog'lay oladi. Bu jarayonda o'quvchi so'zning tuzilishini anglaydi, bo'g'in haqidagi nazariy bilimni amaliyotda qo'llaydi hamda lug'at boyligini kengaytiradi. Uzum tasviri esa topshiriqni bolalar uchun qiziqarli va jonli ko'rinishga keltiradi.

Metodni o'tkazishda o'qituvchi doskaga yoki plakatga uzum novdasini chizadi va uning o'rtasiga biror bo'g'in yozadi. Masalan, “gul” bo'g'ini yozilgan bo'lsa, o'quvchilar shu bo'g'in ishtirok etgan so'zlarni topadilar: *gulzor, guldasta, gulchi, atirgul, gulshan* va hokazo. Har bir topilgan so'z uzum donasiga yoziladi. Agar metod guruh shaklida tashkil etilsa, har bir guruh o'z “uzum shingili”ni yaratadi va qaysi guruh ko'proq hamda to'g'ri so'z yozsa, o'sha guruh rag'batlantiriladi.

Metodning maqsadi bo'g'in haqidagi bilimlarni mustahkamlash, so'z tuzish malakasini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish hamda o'quvchilarni faol fikrlashga undashdan iborat. Jarayon davomida o'quvchilar mustaqil izlanadi, tez fikrlaydi va o'z fikrini asoslashga harakat qiladi. Zarur hollarda topshiriqni

murakkablashtirish mumkin, ya'ni berilgan bo'g'in so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida keladigan so'zlarni alohida ajratish yoki topilgan so'zlar bilan gap tuzish vazifasi ham qo'shimcha qilinadi.


Uzum metodining afzalligi shundaki, u darsni jonlantiradi, o'quvchilarni faol ishtirokka jalb etadi va bo'g'in bilan ishlash jarayonini qiziqarli shaklga keltiradi. Metod muntazam qo'llanilganda o'quvchilar so'z tarkibini tezroq anglay boshlaydi, imloviy savodxonligi oshadi va og'zaki hamda yozma nutqi boyiydi.

## “ZANJIR SO'Z” METODI

“Zanjir so'z” metodi o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va tez fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv usuldir. Bu metodda so'zlar bir-biriga zanjir kabi ulanib boradi, ya'ni har bir keyingi so'z oldingi so'zning oxirgi harfi bilan boshlanishi kerak. Jarayon o'yin shaklida kechadi, lekin uning asosida til ustida ongli ishlash yotadi.

O'qituvchi birinchi so'zni aytadi yoki doskaga yozadi. O'quvchilar navbat bilan zanjirni davom ettiradi. Agar biror o'quvchi so'z topa olmasa, navbat boshqasiga beriladi. Metod yakka, juftlik yoki guruh shaklida tashkil etilishi mumkin. Jarayon davomida o'qituvchi noto'g'ri aytilgan so'zlarni tuzatadi va imlo jihatidan to'g'ri talaffuzga e'tibor qaratadi.

Boshlang'ich so'z: *Maktab*.



Zanjir davom ettiriladi. So'ng o'quvchilardan 2–3 ta so'z bilan gap tuzish so'raladi.

## “HALQA SO'Z” METODI

Bu metod o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, so'z turkumlari ustida ishlash va mantiqiy bog'lanish hosil qilish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu metodda so'zlar halqa(aylana) shaklida joylashtiriladi va har bir so'z oldingisi bilan ma'lum bir mazmuniy bog'lanishga ega bo'lishi kerak.

Metodning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi shunchaki so'z aytmaydi, balki u nima sababdan oldingi so'z bilan bog'langanini izohlab beradi. Bu esa tafakkurni chuqurlashtiradi va ongli fikrlashni shakllantiradi.

O'qituvchi doskaga aylana(halqa) shaklini chizadi. Halqaning bir nuqtasiga boshlang'ich so'z yoziladi. Masalan: *bahor*. Keyingi o'quvchi shu so'z bilan bog'liq boshqa so'z aytadi va halqaga yoziladi. Masalan: *gullar*. So'ng uchinchi o'quvchi *gullar* bilan bog'liq so'z aytadi: *bog'*. Halqa shu tarzda davom etadi.

Har bir o'quvchi aytgan so'zini qisqa izohlab berishi talab qilinadi. Masalan: *Men gullar dedim, chunki bahorda gullar ochiladi*.

Metod guruh shaklida tashkil etilsa, har bir guruh o'z halqasini yaratadi.

# IJOD QILAMIZ

## savodxonligi)

Boshlang'ich so'z: *Bahor*.



Bahor

gullar

bog'

daraxt

hosil

### "RANGLI RUCHKALAR" METODI

"Rangli ruchkalar" metodi o'quvchilarga so'z turkumlarini ongli ravishda ajrata olishni o'rgatishga qaratilgan amaliy va vizual metodlardan biridir. Ushbu metodda har bir so'z turkumi ma'lum bir rang bilan ifodalanadi. Masalan, ot turkumi qora rangda, sifat turkumi qizil rangda, son turkumi esa ko'k rangda yoziladi. Ranglar orqali farqlash o'quvchining ko'rish xotirasini faollashtiradi va grammatik tushunchalarni tezroq anglashiga yordam beradi.

Metodning asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'quvchi so'z turkumini nafaqat nazariy jihatdan biladi, balki uni amalda ranglar orqali ajratadi va mustahkamlaydi. Rangli ajratish usuli kichik yoshdagi o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lib, dars jarayonini jonlantiradi.

#### Rangli ruchkalar metodi

Ot turkumi: qora Sifat turkumi: qizil Son turkumi: ko'k

Bog'da uchta katta daraxt va ikki chiroyli gul o'sadi.

Besh bola keng maydonda quvnoq o'ynadi.

Bahorda to'rt yashil daraxt gulladi.

Ikki kichik bola yangi bog'da o'ynadi.

Bahorda to'rt yashil daraxt gulladi.

Ikki kichik bola yangi bog'da o'ynadi.

Bahorda to'rt yashil daraxt gulladi.

Masalan:

Otlar – qora rangda;

Sifatlar – qizil rangda;

Sonlar – ko'k rangda.

Dastlab og'zaki tahlil qilinadi, so'ng yozma ish bajariladi. O'qituvchi nazorat qilib, xatolarni birgalikda tuzatadi.

Bu orqali o'quvchilar so'z turkumlarini chalkashtirmay ajrata oladi, yozma ishda grammatik xato kamayadi va gap tuzilishini ongli ravishda tahlil qilishga o'rganadi. Rangli yozuv orqali tushuntirilgan mavzu uzoq muddat xotirada saqlanadi.

### "O'NG VA CHAP" METODI

Bu metod o'quvchilarning tovush va harf haqidagi bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan harakatli interaktiv usullardan biridir. Ushbu metodda o'quvchilarga turli so'zlar ko'rsatiladi yoki aytiladi. Agar so'z unli harf bilan boshlangan bo'lsa, o'quvchilar o'ng qo'lini ko'taradi, agar so'z undosh harf bilan boshlangan bo'lsa, chap qo'lini ko'taradi.

Metodning mohiyati – o'quvchi eshitgan yoki ko'rgan so'zning birinchi tovushini tezkor tahlil qiladi va uni toifalarga ajratadi. Bu jarayonda diqqat, tez fikrlash va fonetik tahlil ko'nikmasi bir vaqtda rivojlanadi. Harakat orqali javob berish esa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun darsni qiziqarli va jonli qiladi.



Shahlo QODIROVA,  
Toyloq tumanidagi  
23-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

### "SIRLI REKLAMA" METODI

O'quvchida mavzuga nisbatan tabiiy qiziqish uyg'otish va ichki motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan interaktiv usul. O'qituvchi yangi mavzuni to'g'ridan to'g'ri e'lon qilmaydi, balki uni yashirin tarzda, "reklama" ko'rinishida taqdim etadi. O'quvchilar esa berilgan ishora, tavsif yoki kalit so'zlar asosida mavzuni mustaqil ravishda topishga harakat qiladi.

Bu metod orqali o'quvchi tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki izlovchi va topuvchi rolini bajaradi. Jarayon qiziqarli taxmin va mulohaza shaklida kechadi. Sirli taqdimot o'quvchilarning diqqatini jamlaydi, ularni faol fikrlashga undaydi va darsning ilk daqiqalaridanoq faollikni oshiradi.

Metod nomidagi "reklama" so'zi tasodifiy emas. Chunki o'qituvchi mavzuni go'yoki reklama qilayotgandek, uning afzalliklarini yoki xususiyatlarini sirli tarzda bayon qiladi. O'quvchi esa shu tavsif orqali nimani nazarda tutayotganini anglashga harakat qiladi.

### "PIANINO" METODI

"Piano" metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, tezkor fikrlashini rivojlantirish va barcha o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi. Metod nomi piano cholg'u asbobidan olingan bo'lib, uning tugmalari (klavishlari) kabi savollar yoki topshiriqlar ketma-ket joylashtiriladi.

Bu metodda o'quvchilar "klavish"larni bosayotgandek navbat bilan savollarga javob beradilar. Har bir tugma alohida savol yoki topshiriqni bildiradi. Jarayon o'yin shaklida tashkil etiladi, lekin uning asosida bilimni tekshirish va mustahkamlash maqsadi yotadi.

Boshlang'ich sinflarda bu metod ayniqsa samarali, chunki bolalar harakat va o'yin orqali tezroq o'rganadi. O'qituvchi doskaga piano klavishlariga o'xshash shakl chizadi yoki kartochkalar tayyorlaydi. Har bir "klavish"ga savol yoki topshiriq yoziladi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, bir klavishni tanlaydi va undagi savolga javob beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Ushbu metodlar o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

"Lolazor" podkastida nimaga lotin alifbosida o'zbekcha matn o'qishga qiyin-u, ingliz tilida o'qishga qiyinmas degan savol ustida mulohaza yuritishibdi jurnalist va huquqshunoslar. Tutuq belgisi, shuningdek, **o'** va **g'** ning shunday birtirnoq bilan ifodalanishi sabab sifatida keltirilibdi.

...Fikr yuritish, bir hodisaning sababini tushunishga intilish, albatta, yaxshi. Lekin ba'zan ilmfan buni qanday tushuntiradi deb ham qiziqib ko'rish foydadan xoli bo'lmaydi.

## Nimaga lotin alifbosida o'zbekcha matn o'qishga qiyin?

Mutaxassis sifatida izoh beraman. Buni men kashf qilmaganman. Bu bo'yicha psixolingvistika, neyrolingvistikada minglab, millionlab tadqiqotlar qilingan. O'sha tadqiqotlarning xulosasi shakllantirgan ilm bu. O'qish qanday jarayon? Buni tushunish uchun "til o'zi nima?" degan savoldan boshlash kerak. Til tabiiy jihatdan og'zaki shaklda yashaydigan hodisa. Yozuv uning shartli belgilar bilan ifodalani-shidir. Demak, tilning og'zaki shakli – asos. Yozuv esa og'zaki shakl uchun vosita. Shunga asosan o'qish bu grafik belgilar (harflar) yig'indisiga qarab, u qaysi og'zaki so'zni bildirayotganini topa olish demakdir. Inson ongi uchun har doim yaxlit so'z ahamiyatli. Tovushlarga ajratish, tovush tarkibini anglash – ta'lim va ilm uchun muhim. Muloqotda esa yaxlit so'z muhim. Shuning uchun ham inson o'qishni o'rganib bo'lgandan keyin miya harflab o'qimaydi, yaxlit so'zni o'qiydi. Bunda miya so'zning bosh harfi, oxiridagi harf hamda so'zdagi harflar soniga asoslanadi. O'qishni o'rganish va harflab o'qishdan yaxlit so'zni o'qish darajasiga chiqish uchun maktab muhim. Bejiz maktabda to'rt yil o'qish darsi bo'lmaydi. Mana shu darslar miyamizda vizual leksikonni shakllantiradi. Vizual leksikon, soddaroq aytganda, so'zlarning yozma shaklining xotiramizda turishidir. Demak, kim qaysi alifboda savod chiqargan bo'lsa, o'sha alifboda bo'ladi bu leksikon. Aynan mana shu vizual leksikon biz kitob o'qiganimizda maza qilib o'qishimizga asos bo'ladi. Bu borada bizda bitta istisno bor, aynan alifbo almashtiranimiz sababli yuzaga kelgan istisno. Bo'lishi mumkin, ko'rsatuv qahramonlarining savodi lotinda chiqqan, ya'ni alifbeni lotinda o'rganishgan, o'qish darslari ham lotinda bo'lgan. Biroq u vaqtda lotin alifbosiga yangi o'tilgan bo'lgani uchun kitoblar, gazetalar, internet sahifalari kirill alifbosida bo'lgan. O'qishga ishtiyoqmand bizning yoshlar kirilchada o'zi qiziqqan mavzuda juda ko'p matn o'qishi hisobiga ular vizual leksikon kirilchada shakllangan. Shuning uchun ham kirilchada maza qilib o'qishadi.

Endi keyingi masala: nima uchun ingliz tilida u narsa sezilmaydi. Chunki u boshqa til va u til uchun bitta alifbo va imlo qoidalari bor, boshqa alternativ alifbo yo'q. Vizual leksikon bitta alifbo asosida shakllanadi. Undan keyin miyamiz turli tillarni alohida tizim sifatida qabul qiladi, shunday qo'llaydi. Bu yerda harflar yoki qandaydir belgilar emas, aynan so'zning vizual shaklining barqarorligi muhim! Aynan shu sabab ham alifboga o'zgartirish kiritish kerak emas, hatto u to'rttagina harf bo'lsa ham.

Iroda AZIMOVA,  
psixolingvist

## Mutaxassis minbari

## KIRISH

Zamonaviy yozuv nazariyasi va struktur lingvistika sohasida alifbo tizimining mukammalligi fonematik tamoyilga qanchalik darajada mos kelishi bilan belgilanadi. Har bir mustaqil va ma'no farqlovchi nutq tovushi(fonema)ning yozuvda o'ziga xos, bir qiymatli va unikal grafema orqali aks ettirilishi yozuv tizimining shaffofligini oshiradi. Bu inson tomonidan matnni idrok etish va o'qish tezligi, avtomatlashtirilgan matn tahlili hamda kompyuter lingvistikasi tizimlarining aniqligini ta'minlaydigan fundamental omildir. Lingvistik tizimda tovush va harf o'rtasidagi muvofiqlikning buzilishi esa yozuvda turli struktur hamda funksional noaniqlikni keltirib chiqaradi.

O'zbek yozuvi amaliyotida til orqa, yumshoq tanglay, burun fonemasining ikki harf birikmasi, ya'ni digrafik konfiguratsiya orqali ifodalanishi uzoq yillar(qariyb bir asr – kirill alifbosi joriy qilinishi)dan buyon davom etib kelayotgan va jiddiy ilmiy-amaliy yechimni talab qiladigan struktur muammolardan. Bu digrafik yondashuv bir vaqtning o'zida ham yaxlit monofonematik birlikni, ham morfemalar chegarasida yonma-yon keladigan alohida undoshlar tutashuvini bir xil grafik shaklda aks ettiradi. Natijada matnni tahlil qilish, bo'g'inga ajratish, urg'uni belgilash hamda tabiiy tilni qayta ishlash modellari uchun jiddiy algoritmik to'siqlar sodir bo'ladi. Bir xil grafik ko'rinishdagi ikki xil lisoniy hodisaning mavjudligi axborotni qayta ishlash tizimlarida tokenizatsiya va sintez xatoliklarini ko'paytirishga olib keladi.

Globallashuv, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda milliy alifboni xalqaro Unicode standartlari va zamonaviy NLP talablariga moslashtirish dolzarb strategik zaruratga aylandi. Maqolaning asosiy maqsadi til orqa burun fonemasiga alohida, avtonom grafema berishning nazariy-fonologik, pedagogik hamda texnologik asoslarini kompleks ravishda tahlil qilish va asoslab berishdan iborat. Maqolada bu grafik islohotning amaliyotga tatbiq etilishi, tilning tabiiy struktur xususiyatini saqlash, boshlang'ich ta'limda savodxonlikni osonlashtirish va o'zbek tilining raqamli makonda to'laqonli hamda xatosiz integratsiyalashuvini ta'minlashdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritib beriladi.



Maqola muammoning ildizlarini o'rganishda ilmiy sintez va empirik tahlil usullarini birlashtirgan holda alifbo islohotining zaruriyatini ilmiy asoslaydi. Tildagi har bir tovushning grafik shakli jamiyatning intellektual va texnologik salohiyati bilan bevosita bog'liq, yozuv tizimining aniqligi axborot uzatish samaradorligi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois taklif etilayotgan yechim ham nazariy tilshunoslik doirasidagi tuzatish, shuningdek, milliy tilning kelgusi raqamli istiqbolini belgilovchi strategik imkoniyatdir.

## FONOLOGIK VA LINGVISTIK ZARURAT

O'zbek tili fonetik tizimida [ŋ] tovushi shunchaki [n] va [g] harflarining oddiy hamda sun'iy birikmasi emas, shuningdek, til orqasining yumshoq tanglayga tegishi natijasida hosil bo'ladigan yaxlit, mustaqil va ayrica burun fonemadir. Tilshunoslikning eng muhim va o'zgarmas qoidalaridan biri – **“bir fonema – bir grafema”** tamoyili. Bitta mustaqil tovushni ikki harf ([n]+[g]) yordamida ifodalash yozuv tizimining mantiqiy hamda fonematik tuzilishiga jiddiy putur yetkazadi.

Hozirgi digrafik yozuv amaliyoti bir xil [ng] belgisi orqali ham monofonematik holatni ([keng], [dengiz]), ham morfemalaro geterosillabik tutashuvlarni ([sen-ga], [kun-gil]) bir xil shaklda aks ettirmoqda. Bu holat fonematik tamoyil buzilishiga, o'qish va ma'no chalkashliklari hamda yozuvda qator noaniqliklarga sabab bo'lib, zamonaviy ilmiy yondashuv talablariga zid keladi.

Muammoni bartaraf etish uchun [ŋ] fonemasiga alohida grafemani joriy etish zarur. Bu o'zgarish ham nazariy tilshunoslik talablarini qondiradi, shuningdek, boshlang'ich ta'limda savodxonlikni osonlashtiradi, matnni avtomatik qayta ishlash (NLP) va sun'iy intellekt tizimlaridagi tokenizatsiya xatoliklarini qisqartiradi hamda o'zbek tilining global raqamli

makon va xalqaro Unicode standartlariga to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Bu fonematik nomuvofiqlikni bartaraf etish yozuvning texnologik va amaliy samaradorligini keskin oshiradi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, qardosh turkiy tillar, jumladan, qozoq, qirg'iz va turkman alifbolarida bu tovush uchun maxsus grafemalar muvaffaqiyatli tatbiq etilgan, bu yozuvdagi ortiqcha vizual va struktur yuklamalarni bartaraf etgan.

O'zbekiston Respublikasining raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va katta til modellari (LLM) davrida har bir fonemaning bir qiymatli grafema orqali ifodalanishi talab etiladi. Agar tilimizning raqamli muhitda mukammal ishlashini istasak, tilshunoslik qonuniyatlari asosida [ŋ] tovushiga mustaqil harf berish masalasini kechiktirmasdan hal etishimiz shart.

## SO'Z VA MA'NO FARQLASH ZARURATI

Zamonaviy o'zbek yozuvi amaliyotida [ng] digrafi bilan bog'liq eng jiddiy struktur muammolardan biri – bir xil grafik shaklning ikki fonetik va semantik hodisani ifodalashi. Lingvistik nuqtayi nazaridan yozuv tizimi nutqdagi ma'no farqlovchi birliklarni aniq va bir qiymatli aks ettirishi shart. Biroq hozirgi alifboda birikma shaklida yozilayotgan [ng] belgisi amalda tubdan farq qiluvchi ikki xil lingvistik holatni yuzaga chiqarib, o'qish, tushunish hamda matnni avtomatik tahlil qilish jarayonlarida jiddiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda.

Birinchi holat – yaxlit va mustaqil burun fonemasi bo'lgan [ŋ] ning qo'llanishi. Bunday so'zlarda harflar ketma-ketligi bir yaxlit tovushni bildiradi va tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmaydi. Masalan, [teng], [dengiz], [so'ng] kabi leksik birliklarda [ŋ] o'zakning ajralmas qismi sifatida qatnashadi. Bu yerda tovush sof fonematik tabiatini namoyon etadi.

Ikkinchi holat ikki alohida tovush – til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi [n] va til orqa, portlovchi [g] ning morfemalar chegarasida o'zaro tutashuvidir. Masalan, [men-ga] (olmosh va jo'nalish kelishigi qo'shimchasi) yoki [tun-gil] (ot va yasovchi qo'shilish chegarasi) kabi misollarda bular alohida morfemalarga tegishli ikkita mustaqil tovushlardir. Ularning talaffuzi va bo'g'inga bo'linishi mutlaqo boshqacha kechadi.

Hozirgi alifboda mazkur ikki xil hodisaning bir xil [ng] digrafi orqali yozilishi jiddiy grafik va semantik noaniqlikni keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarni bo'g'inga ajratishda, urg'u qo'yish va imlo qoidalarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, [singil] so'zini [sin-gil] tarzida noto'g'ri

bo'g'inga ko'chirish hollari aynan shu digrafik chalkashlikning amaldagi yaqqol ifodasidir.

Uchinchi holat – kongress, shtanga, avangard kabi o'zlashma so'zlarda [n] va [g] tovushlari alohida-alohida, o'zining asl holatida aniq talaffuz qilinadi. Hozirgi [ng] digrafi qoidasi o'quvchiga o'zlashma so'zdagi yonma-yon kelgan [n] va [g] undoshlarini yaxlit [ŋ] burun fonemasidan vizual farqlash imkonini bermaydi.

Bu muammoni bartaraf etishning yagona ilmiy va amaliy yechimi – [ŋ] fonemasiga alohida va o'zgarmas grafema ([D]) [ŋ] yoki [Ñ] [ñ] berish. Alohida harfning joriy etilishi matndagi barcha o'qish, urg'u va bo'g'inga bo'lishdagi chalkashliklarga to'la barham beradi. Bu o'zgarish fonematik tamoyilni tiklabgina qolmay, tilimizning ichki mantiqiy tizimini mustahkamlaydi va amaliy savodxonlikni keskin oshiradi.

## TEXNOLOGIK VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI ZARURATI

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanib, sun'iy intellekt (SI), mashina tarjimasi hamda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari kundalik hayotimiz va ilm-fanning ajralmas qismiga aylanib borayotgan bir davrda yozuv tizimining texnologik mukammalligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek tilidagi [ng] digrafi raqamli makon va zamonaviy kompyuter lingvistikasi uchun jiddiy texnik to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi alifboda [n] va [g] harflarining yonma-yon kelishi kompyuterlar va neyron tarmoqlar uchun matnni tahlil qilishda algoritmik chalkashliklarni yuzaga keltiradi.

Sun'iy intellekt va katta til modellari (LLM)da so'zlarni qismlarga bo'lish, ya'ni tokenizatsiya jarayoni muhim o'rin tutadi. Kompyuter [ng] birikmasiga duch kelganda uni yaxlit bitta fonema sifatida qabul qilishi yoki alohida morfemalarga tegishli ikkita mustaqil harf sifatida ajratishi lozimligini aniqlashda doimiy ravishda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Bu holat mashina tarjimasining aniqligini pasaytirib, matn semantikasini ochib berishda sun'iy intellekt imkoniyatlarini cheklaydi, semantik aniqlikka putur yetkazadi.

Shuningdek, ovoqli texnologiyalar – matnni ovozga aylantirish (TTS – Text-to-Speech) va nutqni matnga o'girish (STT – Speech-to-Text) tizimlarida bu muammo yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Agar [ŋ] tovushi uchun [D] [ŋ] yoki [Ñ] [ñ] kabi alohida simvol mavjud bo'lmasa, sintezatorlar va ovoqli modellari so'zlarni talaffuz qilishda fonetik buzilishlarga yo'l qo'yadi. Fonema uchun maxsus grafemaning joriy etilishi algoritmik xatoliklarni nolgacha qisqartiradi, nutqni qayta ishlash aniqligini keskin oshiradi hamda o'zbek tilining xalqaro Unicode standartlari va

global raqamli makonga to'laqonli integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

## MA'RIFIY VA TA'LIMIY ZARURAT

O'zbek ta'lim tizimida savodxonlikni oshirish, imlo qoidalarini o'rgatish hamda o'zbek tilini ham ona tili, ham ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish doimiy dolzarb masalalardan. Hozirgi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi [ng] digrafining qo'llanishi boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda tilni o'rganayotgan xorijliklar uchun o'zlashtirish jarayonida bir qator jiddiy metodik to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Fonema va grafema o'rtasidagi nomuvofiqlik ta'limiy jarayonda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini cheklab, yozma nutqda ortiqcha grafik xatolarni yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik psixologiya va metodika nuqtayi nazaridan, boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuvni o'rganish jarayonida “bir tovush – bir harf” tamoyiliga tayanadi. Biroq o'quvchi [ng] birikmasini ko'rganda tabiatan bitta yaxlit burun tovushi sifatida emas, ikkita alohida harf – [n] va [g] ning yig'indisi sifatida qabul qilishga moyil bo'ladi. Bu holat o'quvchilarning fonetik tahlil o'tkazishida, tovush va harf munosabatlarini anglashida fundamental ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Natijada bolalar so'zlarni yozish va o'qishda qiynaladilar, bu esa boshlang'ich ta'limda savodxonlikni shakllantirish jarayonini sekinlashtiradi.

Shuningdek, o'zbek tilini chet tili sifatida o'rganayotgan xorijiy talabalar uchun ham bu digrafik yondashuv katta qiyinchilik tug'diradi. Xalqaro tajribada fonetik tizimni mukammal shakllangan tillarda har bir tovush o'zining aniq grafikasiga ega bo'lishi talab etiladi. O'zbek tilini o'rganayotgan chet elliklar so'z ichidagi [ng] birikmasini qachon yaxlit tovush sifatida, qachon alohida morfemalar tutashuvi sifatida o'qish kerakligini tushunishda doimiy ravishda xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bu holat tilimizni xalqaro miqyosda o'qitish samaradorligini ham pasaytiradi.

Agar [ŋ] fonemasi uchun alohida grafema ([D]) [ŋ] yoki [Ñ] [ñ] joriy etilsa, ta'lim jarayonida burilish yasaladi. Birinchidan, imlo va talaffuz qoidalarini o'rgatish soddalashtadi. O'quvchi bitta harfini ko'rib, darhol bitta mustaqil tovush sifatida idrok etadi. Ikkinchidan, o'quvchilarning yozma nutqdagi grafik xatolari, jumladan, bo'g'in ko'chirish va satrdan satrga o'tkazishdagi xatoliklar avtomatik ravishda kamayadi. Masalan, [kelingizlar] so'zini [ke-lin-giz-lar] tarzida bo'laklarga bo'lish kabi qo'pol imlo xatolariga o'rin qolmaydi.

## QULAYLIK VA TEJAMKORLIK ZARURATI

Zamonaviy yozuv tizimlarining asosiy vazifalaridan biri lisoniy axborotni eng kam grafik resurslar yordamida maksimal darajada aniq, tushunarli va qulay shaklda yetkazib berishdir. O'zbek lotin alifbosidagi [ng] digrafining qo'llanishi yozuvning amaliy qulayligi, grafik tejamkorligi va matbaa-tahririyat jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bitta fonema uchun ikki harfdan foydalanish ham nazariy talablarga, shuningdek, amaliy matn yaratish, bosmaxona va kompyuterda terish jarayonlarining iqtisodiy-texnik samaradorligiga ham putur yetkazadi. Bu jihatdan [ŋ] burun fonemasiga alohida grafema ([D]) [ŋ] yoki [Ñ] [ñ] berish qulaylik va tejamkorlik zarurati sifatida keskin namoyon bo'ladi.

Birinchidan, grafik tejamkorlik va optimizatsiya masalasiga to'xtalsak. Tilshunoslik va grafika nazariyasida har bir simvol ma'lum bir hajmiy va vaqtinchalik resursni egallaydi. Katta hajmli ilmiy, badiiy va omamaviy axborot matnlarini yaratish, tahrirlash hamda chop etish jarayonida har bir so'zning harflar soni muhim o'rin tutadi. Agar [ŋ] tovushi mustaqil yagona grafemasiga ega bo'lsa, u holda matndagi umumiy belgi va harflar hajmi qisqaradi. Bu kompyuterda matn terish vaqtida tejamkorlikni ta'minlabgina qolmay, elektron ma'lumotlar bazalarida xotirani tejash hamda matnni vizual qabul qilish qulayligini oshiradi. Hozirgi digrafik yozuvda ikkita harf ([n]+[g]) talab qilinadigan o'rinalarga yagona simvolning qo'llanishi grafik ixchamlikning mukammal namunasidir.

Ikkinchidan, satrdan satrga ko'chirish va bo'g'inga bo'lish jarayonidagi amaliy muammolar va ularning avtomatik yechimlari mavjud. Matbaa va tahririyat amaliyotida matnlarni sahifalash va bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirish qoidalarini qat'iy me'yorlarga tayanadi. O'zbek tilida [ng] birikmasi ishtirok etgan so'zlarni satrdan satrga ko'chirish jarayonida har doim ham bir xil qoida ishlaymaydi. Masalan, [singil] so'zida bu yaxlit bitta tovush bo'lgani uchun uni bo'g'inga bo'lib ko'chirishda xatolikka yo'l qo'yilishi mumkin. Ko'pincha matbaa xodimlarining yoki matn muharrirlarining e'tiborsizligi natijasida [si-ngil] tarzida yozilishi lozim bo'lgan so'z [sin-gil] shaklida noto'g'ri bo'lib ko'chiriladi. Bu imlo va tahrir qoidalarining buzilishiga ham olib keladi.

Uchinchidan, o'zbek tilida so'z asosiga morfemalarning ulanishiga asoslangan xususiyat amaldagi [ng] digrafi kesishganda grafik nomutanosiblik va orfografik ziddiyatni yuzaga keltiradi. Masalan, asosi [ng] bilan tugaydigan so'zlarga [-ga], [-gil], [-gina] kabi qo'shimchalar qo'shilganda (tong – tonggi, so'ng – so'nggi, bodring – bodringga) bir o'rinda uchta undosh harf(n-g-g)ning yonma-yon ke-

lib qolishi ko'zga vizual og'irlik beradi va o'qish tezligini pasaytiradi. Qolaversa, aynan shu so'zlarning 3-shaxs egalik qo'shimchasi qo'shluvidan hosil bo'lgan shakllari (tongi, so'nggi) bilan yuzaga keladigan grafik chalkashlik (tonggi – tongi, so'nggi – so'ngi) matnni tushunishda grammatik noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Agar [ŋ] uchun maxsus va yagona grafema joriy etilsa, bu kabi texnik va tahririy xatoliklar avtomatlashtirilgan tarzda o'z-o'zidan barham topadi. Matn muharrirlari va avtomatik sahifalash dasturlari yagona harfini qismlarga ajratib bo'lmagligini yaxshi anglaydi va uni hech qanday qo'shimcha nazoratsiz to'g'ri bo'g'inga bo'lib ko'chiradi.

## XALQARO TAJRIBA VA STANDARTLAR

Zamonaviy yozuv tizimlarini takomillashtirish, fonematik aniqlikni ta'minlash hamda milliy alifbolarni xalqaro texnologik standartlarga uyg'unlashtirish jahon tilshunosligiga ustuvor vazifalardan. O'zbek lotin alifbosida [ng] digrafi orqali ifodalanib kelayotgan burun fonemasi [ŋ] masalasini hal etishda xalqaro tajriba, qardosh tillar amaliyoti va global raqamli standartlar muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Dunyo miqyosida tillarning grafika tizimini optimalashtirish bo'yicha o'plangan boy tajriba o'zbek yozuvi uchun ham yaqqol namuna bo'la oladi.

Birinchidan, turkiy tillar tajribasi bu borada eng yaqin va ishonchli empirik asosdir. Aksar qardosh turkiy tillar lotin yoki kirill alifbolarida bu o'ziga xos burun tovushini ikki harf birikmasi orqali emas, qat'iy ravishda bitta mustaqil grafema vositasida aks ettiradilar. Masalan, qozoq va qirg'iz alifbolarida [H] [u], turkman tilida [ŋ] [ñ], tatar hamda boshqird tillarida [H] [u] harfi qabul qilingan, alifboning fonematik shaffoflikni ta'minlaydi va so'zlarni noto'g'ri o'qish hamda bo'g'ingaga bo'lishdagi barcha chalkashliklarga barham beradi;

Ikkinchidan, imlo va ta'lim tizimini keskin soddalashtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va tilimizni o'rganayotgan chet elliklar duch keladigan grafik ziddiyatlar bartaraf etiladi. O'quvchilar bitta harfini ko'rib, darhol yagona tovush sifatida idrok etadilar, bu yozma nutqdagi imlo xatolarini kamaytirib, savodxonlik darajasini yangi bosqichga ko'taradi;

uchinchidan, o'zbek tilini raqamli makon, sun'iy intellekt va NLP texnologiyalariga muammosiz integratsiya qilishni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt modellariida tokenizatsiya xatoliklarini nolgacha tushirish, ovoqli texnologiyalar (TTS/STT) va mashina tarjimasining aniqligini oshirish uchun har bir fonemaning o'ziga xos yagona simvoli bo'lishi shart. Xalqaro Unicode standartlariga to'la mos keluvchi bu islohot o'zbek tilining global axborot makonidagi mavqeyini mustahkamlaydi.



Baxtiyor MENGLIYEV,  
TAFU tadqiqotch-professori,  
filologiya fanlari doktori

ahamiyatga ega. Xalqaro Fonetik Alifboda bu tovush [ŋ] simvoli bilan qat'iy belgilangan. Shu bilan birga, zamonaviy global axborot tizimlarining xalqaro Unicode standartida [D] [ŋ], [Ñ] [ñ], [ŋ] [ñ] kabi harflar allaqachon universal kodlarga ega, ularni dunyodagi barcha operatsion va shriflari tizimi, klaviaturalar to'liq qo'llab-quvvatlaydi. O'zbek tilining bu xalqaro standartlarga to'laqonli qo'shilishi uchun alifbodagi mavjud digrafik bo'shliqlarni bartaraf etish talab etiladi.

## XULOSA

Zamonaviy o'zbek yozuvi va tilshunosligi oldida turgan eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri – [ng] digrafi bilan yozib kelinayotgan burun fonemasiga [D] [ŋ] yoki [Ñ] [ñ] kabi alohida, mustaqil grafemani berishdir. O'tkazilgan tahlillar va xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, bu ilmiy-amaliy qadam imlo islohoti, shuningdek, tilimizning kelajagini belgilab beruvchi uch asosiy strategik ustuvorlikni qamrab oladi:

birinchidan, tilning tabiatini yozuvda to'liq va haqqoniy aks ettiradi. Fonologik jihatdan til orqali hosil qilinadigan bu o'ziga xos burun tovushi oddiy [n] va [g] harflarining sun'iy birikmasi emas, yaxlit va ayrica fonemadir. Tilshunoslikning o'zgarmas “bir fonema uchun bir grafema” tamoyiliga tayangan holda alohida harfning joriy etilishi yozuv tizimidagi fonematik shaffoflikni ta'minlaydi va so'zlarni noto'g'ri o'qish hamda bo'g'ingaga bo'lishdagi barcha chalkashliklarga barham beradi;

ikkinchidan, imlo va ta'lim tizimini keskin soddalashtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va tilimizni o'rganayotgan chet elliklar duch keladigan grafik ziddiyatlar bartaraf etiladi. O'quvchilar bitta harfini ko'rib, darhol yagona tovush sifatida idrok etadilar, bu yozma nutqdagi imlo xatolarini kamaytirib, savodxonlik darajasini yangi bosqichga ko'taradi;

uchinchidan, o'zbek tilini raqamli makon, sun'iy intellekt va NLP texnologiyalariga muammosiz integratsiya qilishni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt modellariida tokenizatsiya xatoliklarini nolgacha tushirish, ovoqli texnologiyalar (TTS/STT) va mashina tarjimasining aniqligini oshirish uchun har bir fonemaning o'ziga xos yagona simvoli bo'lishi shart. Xalqaro Unicode standartlariga to'la mos keluvchi bu islohot o'zbek tilining global axborot makonidagi mavqeyini mustahkamlaydi.

O'y

# O'zbek bolalar o'zbekcha matnini harflab ham o'qiyolmayapti...

XX asr boshlarida jadidchilik harakati mustamlaka ostida ezilgan, haq-huquqi, erki, o'zligi, tilidan ayrilgan davlatlarda boshlandi. Jadidlar o'zlari yashab turgan mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolarni ko'tardilar va muammolarni bartaraf etish uchun astoydil kurashib, aziz jonlarini fido qildilar. Ushbu fikr isbotini jadid adabiyotining namoyandalari misolida ko'ramiz.

1875-yili Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, 1878-yili Toshkentda Abdulla Avloniy, 1886-yili Buxoroda Abdurauf Fitrat, 1889-yili Qo'qonda Hamza Hakimzoda, 1894-yili Toshkentda Abdulla Qodiriy, 1897-yili Andijonda Abdulhamid Cho'lpon tug'ildi. Ular Turkistonning turli shaharlarida, turli vaqtlarda tug'ilgan bo'lishiga qaramay, "til-da, fikrda, ishda birlikda..." edi. Hatto, bir-birlarini tanimasa-da, matbuot orqali maslakdosh, maqsadlari doimo mushtarak edi. Ular millat va yurt qayg'usi bilan yashadi. Ana shu qayg'u bilan aziz jonlaridan judo bo'ldilar.

Jadidlar o'zlari yashagan jamiyatda qanday muammo bo'lsa, darrov u muammoni bartaraf etish uchun harakat qilganlar. Ana shu nuqtayi nazardan biz, jadid ajdodlarning yangi avlodlari, bugungi jamiyatda yashayotgan millatdosh, vatandoshlar ham jadidlar singari qadamida uchragan, ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshitib turgan muammolarni bartaraf etish uchun o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida "Kim jadidlar yo'lidan yurmas ekan bizlardan emas" degan edi.

Prezident o'z nutqida jadidlarining ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi islohotlar bilan naqadar hamohang ekanini ta'kidlab, quyidagicha fikr bildirgan:

**G'oyalar hamohangligi:** "Jadidlar g'oyalari yangi O'zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir".

**Islohotlar asosi:** Davlat rahbari jadid bobolarimizning ma'naviy merosisiz va ular tanlagan ilm-ma'rifat yo'lisiz mamlakat kelajagini tasavvur qilib bo'lmasligiga urg'u bergan.

**Milliy o'zlik:** Ushbu yig'ilishda ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalari "hayot-mamot masalasi" deb belgilandi.

Shuningdek, 2023-yil 11-12-dekabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensi-

yada ham Prezidentning jadidlar merosini o'rganish bo'yicha murojaati o'qib eshittirilgan edi.

Jadidlar harakatining asosiy yo'nalishlaridan biri "milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari", Prezident so'zlarida ham aynan ana shu masalaga urg'u berilgan.

Vaziyat shunday ekan, nega yangi ochilgan va ochilayotgan xususiy maktablarda ta'lim rus tilida berilayapti? Ta'lim tilini milliy tilga aylantirish vaqti kelmadimi? Agar u kelmagan bo'lsa, qachon keladi? Ushbu savollarga qaysi mutasaddi javob beradi?

Ayni rus tilida ochilgan maktablarda o'zbek tiliga e'tibor qanday bo'layapti? Buni kim nazorat qilayapti? Jadidlar nima uchun millatim, tilim, o'zligim deb kurashgan? Ayni holat davom etaversa, millat, til, o'zlik yo'qolib ketmaydimi?

Respublika o'quv metodika markazi tomonidan tasdiqlangan dasturda ta'lim rus va boshqa til-larda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili haftasiga 3 soat o'tilishi belgilangan. Ammo, ta'lim rus tilida olib boriladigan xususiy maktablarda o'zbek tili haftasiga nomiga 2 marta o'tiladi, jurnalga 3 marta o'tildi deb yoziladi. Ayrimlarida o'zbek tili umuman o'tilmaydi, sabab – ushbu maktablarda ta'lim oladigan o'quvchilar va ularning ota-onalari farzandlarini o'zbek tilini o'rganishidan bosh tortadi. Vaholanki, maktab ta'limida o'qitiladigan fanlar xususiy maktabdami yoki davlatnikida, u majburiy bo'lishiga qaramay, o'zbek tilini o'qishdan ixtiyoriy ravishda bosh tortiladi.

Achinarlisi shundaki, mazkur maktablarda ta'lim olgan o'zbeklar o'z millatiga xos xarakter, xususiyat, madaniy va ma'naviy fikr bilan ulg'aymayapti. Ularda o'zbek tili va millatiga nisbatan nafrat tuyg'ulari shakllanyapti. Ayni holat va tuyg'ular, ular xususiy universitetlarda o'qishni davom ettirayotgan paytda namoyon bo'lyapti.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan universitet talabalariga o'zbek tilidan darsga kiraman. O'zbek bolalar o'zbekcha matnini harflab ham o'qiyolmayapti va o'qishni umuman xohlamayapti.



Azimjon DAVRONOV,  
filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent

Matnini o'zim o'qib berayapman. Matn mazmunini tushunmayapti, tushunishni ham xohlamayapti. Talabalardan holatning sababini so'raganimda biz maktabda umuman o'zbek tili o'qimaganmiz, qolaversa bu til bizga nimaga kerak deb, nafratini yashirmayapti. Mana haqiqiy ahvol. Bu holatlarga maktab va universitetda shaxsan o'zim guvoh bo'lganman. Ushbu maktab va universitetlarning manzili kimga qiziq bo'lsa manzilini ham ko'rsataman.

Ushbu noxush manzarani "ayol o'z turmush o'rtog'idan emas, boshqa birovdan farzand ko'rishni istashi", "dunyoni o'z ko'zi bilan emas, boshqa kishining ko'zi bilan ko'rish", "ovozni o'z qulog'i bilan emas, o'zga kimsaning qulog'i bilan eshitishi", "qiz va yigit bir-birini o'z yuragi bilan emas, begona odamning qalbi bilan sevishi"ga o'xshatish mumkin.

Jadidlar millatimiz bunday millat bo'lishini orzu qilmagan. O'zbek millatining shunday gibridlashishidan juda qo'rqqan. Boshqa tilda tafakkur qilgan kishi "tilda, fikrda, ishda birlikda..." bo'lolmaydi.

Rus tilidagi xususiy maktab va xususiy universitetlarning ochilishiga davlat tomonidan ruxsat berilmasligi kerak. Shu kungacha ta'lim rus tilida olib boriladigan davlat va xususiy maktablarni o'zbekchaga o'tkazish vaqti allaqachon o'tib ketgan. U maktablarda dars beradigan rus va boshqa millatlarga mansub o'qituvchilar marhamat qilib, o'zbek tilini o'rganib kuch va bilimlarini o'zbek maktabida o'zbek tili va o'zbek davlatining mavqeyini yuksaltirishga sarflashi kerak. Bu ishlariga barham berish vaqti allaqachon kelgan. Agar ahvol shu tarzda davom etaversa, 2026-yilning 9-may kuni "Birodarlik" xiyobonida ro'y bergan ikkiyoqlama qarashlar kurashi keskin millatlara-ro ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Rus tilida ta'lim olgan o'zbek, o'zbek millati va O'zbekiston davlati uchun begona bir individ bo'lib qolaveradi.

Buxoro viloyati Kogon shahridagi 10-maktabda Pedagogik kengash yig'ilishi ketyapti. O'qituvchilardan biri o'z vatanida, rasmiy yig'ilishda o'zbek tilida fikrini bayon etmoqda. Ammo kutilmaganda maktabning kasaba uyushmasi raisi unga rus tilida savol berdi, ammo o'qituvchi unga o'zbek tilida murojaat qilishini aytdi. Rus tilida savol bergan kasaba uyushmasi raisi yoki boshqa bir hamkasbi unga e'tiroz bildirdi: "Bu yer ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab, bu yerda faqat rus tilini biladiganlarga ishlaydi".

Kulgingiz keladimi yoki yig'lagingiz? Afsuski, bu xayoliy sahna emas. Bu – bugun ba'zi ta'lim muassasalarida, vazirlik va idoralarda, hatto xizmat ko'rsatish sohasida bot-bot quloqqa chalinayotgan achchiq haqiqat.

Biz qachondan beri o'z davlatimizda o'z tilimizda gapirish uchun kimdandir ruxsat so'raydigan yoki kechirim so'raydigan bo'lib qoldik? Maktab ixtisoslashgan bo'lishi mumkin, lekin

## O'z yurtimizda ona tilimiz qachongacha kamsitiladi?

hudud O'zbekiston! O'zbekistondagi har qanday maktab – u xoh ingliz, xoh rus, xoh xitoy tiliga ixtisoslashgan bo'lsin, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining qonunlari va Konstitutsiyasiga bo'ysunadi. Maktab ostonasidan ichkariga qadam qo'ygan odam boshqa davlatning chegarasini kesib o'tgani yo'q.

Konstitutsiyamizning 4-moddasida ham, "Davlat tili haqida"gi qonunda ham o'zbek tili davlat tili ekani qat'iy belgilab qo'yilgan. Qonunning 10-moddasi esa korxona va muassasalarda ish yuritish, yig'ilishlar davlat tilida olib borilishini talab qiladi. Shunday ekan, rasmiy pedagogik kengashda davlat tilida gapirgan o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik qilish uni oyoqosti qilish yoki uni cheklash, shunchaki madaniyatsizlik emas, bu to'g'ridan to'g'ri qonunbuzarlikdir.

O'zbekistonda yashab, davlat budjetidan oylik olib, davlat tili bo'lgan o'zbek tilini mensimaslik, uni o'rganishni istamaslik va buning ustiga boshqalarga ham taqiqlash – bu jamiyat, millat va davlatga nisbatan hurmatsizlikdir. Agar ta'lim muassasasidagi mas'ul shaxsning saviyasi shunday bo'lsa, u ertaga o'sib kelayotgan yosh avlodga qanday vatanparvarlikdan saboq beradi? U qaysi millat kadrini tarbiyalayapti?

"Ruscha gapirsangiz, madaniyatliroq ko'rinasiz" kompleksi. Bu muammo faqat bitta maktab bilan cheklanib qolmagan. Shaharlarimizdagi nufuzli restoran, xizmat ko'rsatish maskanlariga kirsangiz, sizga o'zbekcha javob berishni o'ziga ep ko'rmaydigan yoshlarni ko'rib ichingiz achiydi. Go'yoki rus tilida gapirish – elitarlik, madaniyatlilik belgisi-yu, o'z ona tilida gapirish – qoloqlikday.

Biz chet tilini o'rganishga qarshi emasmiz. Zero, til bilgan el biladi. Rus, ingliz, nemis tillarini mukammal bilaylik. Ammo bu tillar o'zbek tilini siqib chiqarish, uni kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak. Dunyoning qaysi rivojlangan davlatida o'z ona tilida gapirgani uchun o'z fuqarosini kamsitadilar? Fransiya'dami? Germaniya'dami? Yoki Rossiya'dami? Yo'q, hech qayerda!

Toki biz "andisha", "mehmonnavozlik" yoki "andishaning oti qo'rqqoq" qabilida ish tutib, tilimizga bo'layotgan hurmatsizlikka jim qarab turar ekanmiz, bunday holatlar ko'payaveradi. Maktab ma'muriyati va vazirlik bunday "pedagoglar"ning xatti-harakatiga huquqiy baho berishi, kerak bo'lsa chora ko'rish shart. Davlat tilini bilmaslik va uni mensimaslik – professional layoqatsizlik deb baholanishi lozim.

Tarixda tillar qurol kuchi bilan emas, shu til egalarining loqaydligi va bepisandligi tufayli yo'q bo'lib ketgan. O'zbek tili yashashi, yuksalishi uchun biz avvalo o'zimiz unga g'urur bilan munosabatda bo'lishimiz kerak. Maktabda o'zbekcha gapirgani uchun kamsitilgan o'qituvchiga esa aytar so'zimiz: Siz haq tomondasiz! Siz qonun va adolat tomonidasiz. O'z yurtigingizda qaddingizni tik tuting. Zero, bu til orqasidan non yeb, unga tosh otayotganlar ertaga tariqdek sochilib ketadi, ona tilimiz esa mangu yashaydi!

Muhammadali RO'ZIBOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi  
Yoshlar parlamentining faollar jamoasi a'zosi

## Bong

## Tahririyatdan:

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 7-iyul kungi majlisida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi qabul qilinib, Senatga taqdim etildi. Ammo jamoatchilikda takomillashtirilishi kutilayotgan alifbomizdan **“ng”** harf birikmasining chiqarilgani ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Gazetamizning 2021-yilgi sonlarida ayni mavzu yuzasidan maqolalar e‘lon qilingan edi. Mavzuning dolzarbligi nuqtayi nazaridan Suvon Melining ushbu maqolasini qaytadan e‘tiboringizga havola etishga qaror qildik.

Har bir til tovushlardan iborat va ular birikib o‘sha tilning nutq tizimi, so‘z va gaplarni hosil qiladi. Tovushlar barcha tillarda mavjud bo‘lsa-da, ular milliy bo‘yoqqa ham ega. Yaratgan har bir millat vakiliga o‘ziga xos nutq organlarini ato etganki, ona tilimizda ham alohida mavqega ega bo‘lgan bir tovush bor.

Bu hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til orqa, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra sonor (ovozdor) bo‘lgan **NG** tovushidir. U hozirgacha qo‘llanib kelayotgan kirill alifbosi va shu kunda qisman amalda bo‘lgan lotin yozuvida ikki belgi, **n** va **g** bilan yozib kelinmoqda. Bunday yozish bir tovush – bir belgi prinsipiga zid bo‘lishidan tashqari, ushbu tovush buzuq talaffuz qilinishiga sabab bo‘lmoqda va uning keyingi taqdiri xavf ostida qolmoqda. Ayrim boshlovchilar, estrada xonandalarimiz “keling”, “yuring” kabi so‘zlarni “kelin-g”, “yurin-g” tarzida noto‘g‘ri ayta boshladi. Bu tovushning buzuq talaffuz qilinishi tilimizning nafosatiga soya tashlay boshladi.

Yaqinda “Yangi alifbo loyihasi” e‘lon qilingan edi. Mazkur loyihada **Sh, Ch** harflari muammosi to‘g‘ri hal etilgan. Umuman, bu loyiha bo‘yicha qizg‘in bahslar bo‘ldi. Lekin, to‘g‘risini aytganda, ba‘zi o‘rinli, muhim fikrlarni to‘liq aytishga vaqt yetishmadi. Shuning uchun ham “Yangi alifbo loyihasi” muhokamasini yana bir muddatga cho‘zishga qaror qilinganligini ma‘qullaymiz.

Biz quyida yangi loyihaning asosiy kamchiliklaridan biri bo‘lgan **ng** tovushi uchun yaxlit bir harf belgilanmagani haqida fikr yuritamiz.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, 1929- va 1993-yillardagi lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbolarida **ng** tovushi uchun yaxlit bir harf olingan edi. Bundan tashqari, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qoraqalpoq, boshqird, tatar singari turkiy tillar alifbolarida mazkur tovush yaxlit bir harf bilan berilgan.

Ba‘zilar **ng** tovushi bir harf bilan ifodalanmagani asosiy sababi kirildan lotinga transliteratsiya qilishda *menga, senga* kabi **ng** tarzidagi holatlarni tarjimon lingvistik dasturlar farqlay olmaydi hamda *tong, bong* so‘zlaridagi kabi **ng** tarzida transliteratsiya qiladi, qabilida tushuntiradilar. Bunday muammo **ng** tovushi bitta yaxlit harf bilan belgilangan turkiy xalqlarda yo‘q-ku? Qolaversa, bizningcha **sen** va **men** olmoshlariga -ga qo‘shimchasi qo‘shilsa, **n** va **g** tovushlari qo‘shilib **ng** tovushiga aylanadi. Bu holatni mumtoz adiblarimiz, jumladan Navoiyda ham kuzatish mumkin.

Ta‘kidlash lozimki, ushbu fonemani **ng** shaklida ikki harf bilan ifodalaganda, o‘quvchilar, talabalar va ba‘zi yurtdoshlarimiz nutqida jiddiy xatolar tez-tez uchrab turibdi. Masalan, *oling, qoling, yozing, bizning* singari so‘zlardagi **ng** ni bitta tovush sifatida emas, balki mazkur so‘zlardagi **n** va **g** larni alohida-alohida tovush sifatida talaffuz qilinmoqda. Ayniqsa II (shaxs hurmat shakli -**ngiz** ga bir **g** orttirilib talaffuz etilmoqda: *kitobingiz, hayotingiz, sog‘lig‘ingiz* kabi.

# Baxtiqaro “ng”



Suvon MELI,  
filologiya fanlari doktori

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi qonun loyihasining asosiy maqsadlaridan biri harfiy birikmalarni “bir tovush – bir harf” prinsipiga ko‘ra ifodalashdir. Shunga muvofiq **ng** fonemasini ifodalash uchun harfli birikma o‘rniga yaxlit bir harf olinishi lozim.

So‘zimiz avvalida ushbu go‘zal tovushimizni baxtiqaro dedik. Chunki u haligacha o‘ziga mos bir belgi olmay arosatda qolmoqda. Lekin uning ham bir kun kelib baxti ochilishi kerak-ku! Bu istiqlo davrida, yangi O‘zbekiston sharoitida ro‘y bermasa, qachon ro‘y beradi? Ona tilimizning nuqssiz go‘zaligi barchamizning orzumiz emasmi?

(“Ma‘rifat” gazetasining 2021-yil 12-may sonidan olindi.)

## IKKINCHI MAQOLA

Tovush tirik hodisa. U nafas bilan, jon va qalb bilan bevosita bog‘liq.

“Yangi alifbo loyihasi”ning muhokama mudati cho‘zilgani yaxshi bo‘ldi. Chunki bu ulkan va muhim masala bo‘lib, alifboning milliy til tabiatiga, tovush tizimiga imkon qadar mutanosib bo‘lishi nafaqat ona tilimiz, balki ona Vatanimiz taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu – mubolag‘a emas. Odamlarimiz chiroyli gapirishi, har bir so‘z va tovushni to‘g‘ri, aniq talaffuz qilishi yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan mamlakatimizning ruhiy-ma‘naviy iqlimiga ijobiy, xayrli ta‘sir o‘tkazishi tayin. Pala-partish so‘zlash, xom-xatala yozish, agar bu epidemiya darajasiga chiqsa, hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi. Hech qachon ezgu natija bermaydi.

Mintaqamizda ro‘y bergan birinchi Renessans ijodkorlaridan biri, buyuk faylasuf bobomiz Abu Nasr Forobiy qomusiy olim sifatida o‘zining “Kitab marobit al-ulum” (“Fanlarning kelib chiqishi”) asarida tovush ilmi haqida fikr yuritib, yozadi:

*“Bu ilm shu ma‘noda foydaliki, u muvozanatini yo‘qotganlarning xulq-atvorini tartibga soladi, komillikka erishmaganlarni komillikka yetaklaydi va muvozanatda bo‘lganlarni muvozanatda tutib turadi. Bu ilm tana sog‘lomligi uchun ham foydali, chunki tana bemor bo‘lganda qalb ham shikastlanadi, tana to‘siqqa uchraganda qalb ham to‘siqqa uchraydi. Binobarin, qalb shifo topgani kabi tana ham shifo topadi, qalbning quvvati shunday harakat sodir etuvchi tovushlar sharofati bilan muvozanatlashadi, ham javhargacha moslashadi”.*

Agar e‘tibor berilsa, buyuk alloma tovushlar hamda u haqdagi ilmni qalb javhari, substansiya bilan bog‘lamoqda. Bundan yana shunday ma‘no chiqadiki, tilda muayyan tovushning buzilishi, noto‘g‘ri talaffuz etilishi milliy qalb javhargacha shikast yetkazishi mumkin. Ma‘lumki, yangi davrdagi o‘zbek tilshunosligi, jadid bobolarimizning qisqa faoliyatini aytmaganda, asosan sovet davrida shakllandi. O‘sha davrda qabul qilingan talay imloviy va fonetik qoidalarda sovet mafkurasining zararli izlari yaqqol seziladi. Milliy tovushimiz **“ng”** (hozircha shunday yozishga majburiyatimiz) uchun ikki harf olinishi be-

korga, tasodifiy qilingan deysizmi? Yo‘q. Ona tilimizni imkon qadar buzish, katta og‘alar tiliga o‘rin bo‘shatish zarur edi. Nahotki, shu mash‘um xatoni istiqlo davrida bilib turib takrorlasak?!

Yaqinda shu tovush haqida bir tilshunos bilan gaplashib qoldim. U **“ng”** uchun ikki harf olish tarafdori ekanligi, agar bir harf olinsa qo‘pol xato bo‘lishini qat‘iyat bilan aytib, o‘z “dalil”larini keltirar ediki, ular oldida ikki harfli **“ng”**ning amaliyotdagi buzg‘unchiligi go‘yo hech gap emasdek...

Tilshunoslik ilmi va til siyosati vatanparvarlikni talab qiladi. Prezidentimiz katta umidlar bilan tashkil qilgan Davlat tilini rivojlantirish departamenti va “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini tayyorlaydigan ishchi guruhi boshida vatanparvar tilshunoslar turishi lozim. Men bu bilan ular vatanparvar emas, deyishdan yiroqman. Lekin ularning xatti-harakati, amaliy ish faoliyati ko‘p narsani belgilaydi. Xulosa chiqarishga imkon beradi.

Zero, til ham Vatandir, Vatanning ulug‘ uzvidir.

Keskinligim uchun kechirim so‘rab, aytamanki, **“ng”** tovushi uchun ikki harf olish kerak deguvchilarning “dalil”lari mutlaqo ilmiy asosga ega emas. Qator qardosh turkiy xalqlar ushbu tovush uchun bir harf olishgan va bu bilan osmon uzilib yerga tushgan emas. Faqat yaxshi bo‘lgan, xolos.

Ishchi guruh **“ng”** tovushi uchun bir harf olish tarafdorlarining fikrini inobatga olishi zarur. Bu, nafaqat ilmiy-amaliy, balki umummilliy masala. Qolaversa, falsafiy masala.

Mumtoz romanimiz “O‘tkan kunlar”da shunday bir sahna bor. Toshkentda xonlikka qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilgach, Toshkent hukmdori Azizbekning yaqin odami bo‘lgan Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek Qo‘qonda buzg‘unchilikda ayblanib, “xonning yonidag‘i xoqon” Musulmonqulga ro‘baro‘ kelganda, uning savollariga javob berishdan ko‘ra sukutni afzal ko‘radi:

*“Chindan ham Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutuni ko‘kka ko‘tarilar ekan baqirdi:*

*– Nega javob bermaysan?!*

*– Siz meni qanday tanig‘an bo‘lsangiz – bo‘lingiz, men, o‘shandog‘ kishining o‘g‘li, – dedi bek. – Men bilan otam siz bilan qushbegiga bir necha turlik bo‘lib tanilsak-da, o‘z vijdonimiz oldida bir turlikinadirmiz! Shuning uchun siz tilagan tarafingizga hukm qilingiz-da, buyrug‘ingizni beraveringiz!”.*

Bu mashhur lavhani keltirishimizdan maqsad, birinchidan, undagi **“ng”**larning go‘zal ishtiroki va tarovatini ta‘kidlash, ikkinchidan, ishchi guruh a‘zolari xuddi Musulmonqul kabi bir harf tarafdorlari fikrini bir chetga surib qo‘yib, o‘zlari tilagan tarafga hukm qilib, buyruqlarini beravermasalar, deymiz.

Milliy tovush bilan o‘ynashib bo‘lmaydi. Yuqorida aytilganidek, tovush ham tirik hodisa. Shunday ekan – baxtiqaro **“ng”** baxti ochilishini kutmoqda.

(“Ma‘rifat” gazetasining 2021-yil 23-iyun sonidan olindi.)

Mutaxassis minbari

# O'ZBEK ADABIY TILI VA DIALEKTLAR:

## XXI asr ilm-fanida ularning ilmiy rivojlanish konsepsiyasi

Insonning fikrlash jarayoni ko'p jihatdan til bilan bog'liq bo'lgani sababli, ilmiy tushuncha va nazariyalarni o'zlashtirishda ona tilining imkoniyatlari katta rol o'ynaydi. O'zbek tilida yaratilayotgan ilmiy adabiyotlar yoshlarning murakkab ilmiy bilimlarni chuqurroq anglashi va ularni amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi.

O'zbek adabiy tilining ilm-fandagi ahamiyati uning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi o'zni bilan ham belgilanadi. Hozirgi kunda ko'plab ilmiy maqola va tadqiqotlar xorijiy tillarda chop etilayotgan bo'lsa-da, ularning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va mahalliy ilmiy muhitga tatbiq etilishi muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, o'zbek olimlarining ilmiy ishlari ham ona tilida yaratilishi va milliy ilmiy maktablarning shakllanishiga xizmat qilishi zarur.

Raqamli texnologiyalar rivoji adabiy tilning ilm-fandagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Elektron lug'atlar, til korpuslari, avtomatik tarjima tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar va ilmiy ma'lumotlar bazalarining yaratilishi o'zbek tilining ilmiy salohiyatini kengaytirmoqda. Kelajakda o'zbek tilida ishlaydigan aqlli qidiruv tizimlari, virtual laboratoriyalar va ilmiy yordamchi dasturlar soni ortishi kutilmoqda. Adabiy til milliy ilm-fanning mustaqil rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi. Fan faqat chet tillari orqali emas, balki ona tilida ham rivojlangandagina keng xalq ommasiga yetib boradi. Shu sababli o'zbek adabiy tilining ilmiy uslubini boyitish, yangi terminlarni yaratish va ilmiy adabiyotlar sonini ko'paytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Matn yaratish, nutqni tanish, avtomatik tarjima, ovozli yordamchilar va chatbotlar inson faoliyatining ko'plab sohaslariga kirib bormoqda. O'zbek tilining bunday tizimlarga moslashtirilishi kelajakdagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt tizimlari samarali ishlashi uchun katta hajmdagi matnlar bazasi, elektron lug'atlar va til korpuslari zarur bo'ladi. O'zbek tili bo'yicha bunday ma'lumotlar bazasining kengayishi natijasida sun'iy intellekt tizimlari o'zbek tilidagi matnlarni yanada aniqroq tushunish va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kelajakda o'zbek tilida ishlaydigan virtual yordamchilar, elektron tarjimonlar, aqlli qidiruv tizimlari va ta'lim platformalari keng tarqalishi mumkin. Bu esa ilm-fan, ta'lim va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Elektron lug'atlar va til korpuslari.** Raqamli til taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri elektron lug'atlar va til korpuslarini yaratishdir. Til korpusi millionlab so'z va matnlarni o'z ichiga olgan elektron ma'lumotlar bazasi bo'lib, u tilning zamonaviy holatini o'rganish imkonini beradi.

O'zbek tili korpusining rivojlanishi:

- yangi so'z va atamalar aniqlash;
- terminologik bazalarni boyitish;
- avtomatik tarjima sifatini yaxshilash;
- ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish;
- sun'iy intellekt dasturlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Elektron lug'atlar esa foydalanuvchi-

larga istalgan vaqtda va istalgan joyda kerakli ma'lumotni tez topish imkoniyatini yaratadi. Kelajakda multimedia lug'atlari, ovozli izohlar va interaktiv platformalar yanada ommalashishi kutilmoqda.

Globallashuv sharoitida turli tillar o'rtasidagi axborot almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli avtomatik tarjima texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. O'zbek tilidan ingliz, rus, turk, arab va boshqa tillarga (hamda aksincha) sifatli tarjima qilish imkoniyatlarining kengayishi ilm-fan va xalqaro hamkorlik rivojiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi o'zbek tilining rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Elektron darsliklar, videoma'ruzalar, masofaviy ta'lim platformalari va virtual laboratoriyalar ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'zbek tilida ilmiy bilimlarning keng tarqalishiga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlaridagi o'quvchilar va talabalar uchun onlayn ta'lim platformalari katta imkoniyat yaratmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida sun'iy intellekt asosida ishlovchi virtual o'qituvchilar va individual ta'lim tizimlari o'zbek tilida ham faoliyat yuritishi mumkin.

Raqamli texnologiyalarning yana bir istiqbolli yo'nalishi ovozli texnologiyalardir. Nutqni avtomatik tanish va matnga aylantirish, shuningdek, matnni ovoz shaklida o'qib berish tizimlari kundalik hayotda tobora keng qo'llanmoqda.

O'zbek tilida bunday texnologiyalar rivojlanishi:

- imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulaylik yaratadi;
- davlat xizmatlaridan foydalanishni yengillashtiradi;
- ta'lim jarayonini takomillashtiradi;
- ilmiy ma'lumotlardan foydalanishni tezlashtiradi.

Kelajakda ovoz orqali boshqariladigan qurilmalar va xizmatlarning o'zbek tilida ishlashi odatiy holga aylanishi mumkin.

O'zbek tilining raqamli rivoji uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

- o'zbek tilidagi elektron resurslarni ko'paytirish;
- ilmiy terminologiyani standartlashtirish;
- milliy til korpuslarini kengaytirish;
- sun'iy intellekt uchun ma'lumotlar bazalarini yaratish;
- dasturiy ta'minot va mobil ilovalarda o'zbek tilini keng joriy etish.

Bu vazifalarning bajarilishi o'zbek tilining raqamli makondagi mavqeyini mustahkamlaydi va uning ilm-fan hamda texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Sheva va lahjalar o'rganish xalqning etnik tarixi va kelib chiqishini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki ayrim til xususiyatlari qadimgi qabila va urug'lar-

ning izlarini saqlab qolgan bo'ladi. Masalan, qipchoq, qarluq va o'g'uz lahjalarining o'ziga xos jihatlari turkiy xalqlarning tarixiy shakllanish jarayonlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dialektologiya fanining asosiy vazifalaridan biri ham shevalarni o'rganish, tasniflash va ilmiy tavsiflashdan iborat. Dialektologik tadqiqotlar natijasida tilning hududiy tarqalishi, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari aniqlanadi. Bu ma'lumotlar adabiy til me'yorlarini takomillashtirish va til siyosatini yuritishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlanishi natijasida sheva va lahjalarning ilmiy ahamiyati yanada ortmoqda. Nutqni avtomatik tanish, ovozli yordamchilar, mashina tarjima va til modellari yaratishda shevalarga oid ma'lumotlar bazasidan foydalanish zarur bo'lmoqda. Bu esa lahja va shevalarni zamonaviy ilm-fan uchun dolzarb tadqiqot obyektiga aylantirmoqda.

Sheva va lahjalar xalqning ma'naviy boyligi va madaniy merosining ajralmas qismidir. Ular xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtiradi. Har bir hudud shevasida o'sha hududning tabiati, xo'jaligi, kasb-kori va madaniy hayotiga oid ko'plab so'zlar mavjud bo'lib, ular milliy madaniyatning o'ziga xos qirralarini aks ettiradi.

**Sheva va lahjalarni asrashning dolzarbligi.** Globallashuv, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ayrim shevalarning faol qo'llanish doirasi qisqarib bormoqda. Ayrim mahalliy so'zlar va nutq xususiyatlari asta-sekin iste'moldan chiqib ketish xavfi ostida qolmoqda. Shu sababli sheva va lahjalarni ilmiy asosda o'rganish, yozib olish, elektron lug'atlar yaratish hamda raqamli arxivlarda saqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kelajakda shevalar bo'yicha elektron korpuslar yaratish, audio va video materiallarni to'plash, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish hamda yosh avlodning ushbu boy merosga qiziqishini oshirish orqali ularni asrab qolish mumkin. Bu nafaqat til boyligini saqlashga, balki xalqning tarixiy va madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazishga ham xizmat qiladi.

Til taraqqiyoti uchun sifatli ilmiy adabiyotlarning mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Shu bois kelajakda tabiiy va aniq fanlar bo'yicha o'zbek tilidagi zamonaviy darslik, qo'llanma va elektron resurslar yaratish zarurati yanada ortadi. Chunki ilm-fanning rivojlanishi ko'p jihatdan uning ona tilida qay darajada ifodalanishi bilan bog'liq.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi ham til taraqqiyotiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Virtual laboratoriya, onlayn kurslar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari va elektron kutubxonalar o'quvchilarga bilimlarni tez va samarali egallash imkonini bermoqda. Ushbu tizimlarning o'zbek tilida faoliyat yuritishi esa tilning ilmiy va texnologik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kelajakda ta'lim tizimi va til taraqqiyoti yanada uzviy bog'lanib boradi. Zamonaviy bilimlar ona tilida qanchalik



Umida IBROHIMOVA,  
University of Business and Science  
professori

keng va sifatli taqdim etilsa, o'zbek tilining ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi mavqeyi ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Sun'iy intellekt XXI asrning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri bo'lib, bugungi kunda tilshunoslik va kommunikatsiya sohaslarida ham keng qo'llanilmoqda. Nutqni avtomatik tanish, mashina tarjima, ovozli yordamchilar va matn yaratish tizimlari inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonda o'zbek tili bilan bir qatorda uning lahja va shevalarini ham raqamli muhitga olib kirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dialektlarning sun'iy intellekt tizimlariga integratsiya qilinishi bir qator imkoniyatlarni yaratadi. Avvalo, bu nutqni avtomatik tanish texnologiyalarining aniqligini oshiradi. Masalan, turli hududlarda yashovchi insonlarning talaffuz xususiyatlari va mahalliy so'zlaridan foydalanishi tizim tomonidan to'g'ri qabul qilinishi mumkin bo'ladi.

Sun'iy intellekt yordamida yo'qolib borayotgan shevalarni saqlash ham mumkin. Audio yozuvlar, videomateriallar va matnli ma'lumotlar maxsus platformalarda jamlanib, kelajak avlodlarga yetkaziladi. Bu esa milliy madaniy merosni asrashning zamonaviy usullaridan biri hisoblanadi.

Kelajakda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ovozli yordamchilar, tarjima tizimlari va ta'lim platformalari o'zbek tilining turli shevalarini ham tushuna oladigan darajaga yetishi mumkin. Bu esa nafaqat texnologik taraqqiyotga, balki til boyligi va madaniy xilma-xillikning saqlanishiga ham xizmat qiladi. Sun'iy intellekt va shevalar integratsiyasi hozirgi o'zbek adabiy tilining raqamli rivojlanishidagi eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohaslarida yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Kelajakda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, elektron lug'atlar va ilmiy tadqiqotlar yordamida o'zbek tilining imkoniyatlari yanada kengayadi. Shevalar esa milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida saqlanib, ilmiy jihatdan chuqur o'rganiladi.

Shunday ekan, o'zbek adabiy tili va shevalarining ilm-fandagi istiqboli porloq bo'lib, ular nafaqat milliy taraqqiyotga, balki jahon ilmiy hamjamiyatidagi o'rnimizning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.



**Baymuradov Ravshan Radjabovichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha “Me'yorda va tajribada modellashirilgan alimantar mikroelementozda buyraklar va urug'donlar tuzilishining morfofunktsional xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

**Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizining 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha “Kasbiy ta'lim tashkiloti o'quvchilarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-didaktik asoslari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

**Jurayev Sanjar Rashidovichning 05.09.06 – Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha “Sug'orish tizimi nasos stansiyalarining energiya va foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.

Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

**Jamolov Anvar Kuchkorovichning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Differensial yondashuv asosida tibbiy kompetensiyalarni mobillashtirish texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.

Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

**Saidkulov Nuriddin Akramkulovichning 09.00.09 – Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar” ixtisosligi bo'yicha “Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirish tendensiyalari” mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

**Primov Baxriddin Abdiraxmonovichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Axborot jadallashuvining jamiyat ma'naviy-axloqiy hayoti taraqqiyotiga ta'siri (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24;

veb-sayt: www.nuu.uz; e-mail: devonxona@nuu.uz; e-xat: nuu@exat.uz

**Toshev Olmas Nuriddinovichning 09.00.09 – Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha “Jamiyat ma'naviy va mafkuraviy barqarorligiga ijtimoiy konfliktlarning ta'siri” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy.

Tel/faks: (55) 503-41-90; e-mail: imtiuz@umail.uz

**Yusupaliyeva Xulkaroy Urazali qizining 05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo'yicha “Ip-yigiruv korxonalari elektr energiyasi iste'molining samaradorligini oshirish(Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.28.11.T.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Alpomish MFY, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy.

Tel/faks: (55) 520-01-52, 520-04-27; e-mail: energetika\_in@umail.uz

**Raxmatova Maktuba Ulug'bekovnaning 05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo'yicha “Sug'orish tizimlari nasos elektr yuritmalari guruhining energiya samaradorligini oshirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.28.11.T.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Alpomish MFY, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy.

Tel/faks: (55) 520-01-52, 520-04-27; e-mail: energetika\_in@umail.uz

**Ilesova Nurjanar Nurgaliyevnaning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Vulvaning skleroatrofik lixenini davolashning minimal invaziv usullarini klinik-dagnostik asoslash” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

**Botirov Akbar Sodiq o'g'lining 05.05.05 – Sanoat issiqlik energetikasi ixtisosligi bo'yicha “Yashash uylari uchun kombinatsiyalashgan bug'latishli sovitish tizimi” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doklari(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.0312025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

**Tohirov Ulug'bek Xolmirzayevichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha “Konvektiv quyosh quritish qurilmasining samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

**Baqoyev Xayrillo Yusupovichning 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Parrandachilik chiqindilari, oqova suv cho'kindilari, fosfogips va ikkilamchi xomashyolar asosida organomineral o'g'itlar olish texnologiyasi” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 7-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76- “v” uy.

Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

**Otaybi Satam Nasserning 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha “Xalqaro tashkilotlar doirasida Saudiya Arabistoni Podshohligi va Xitoy Xalq Respublikasi munosabatlarida kooperativ xavfsizlikni ta'minlash masalalari” mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-02-24;

veb-sayt: www.nuu.uz; e-mail: devonxona@nuu.uz; e-xat: nuu@exat.uz

**Maxmudov Shaxrillo Sharipovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Yuqori malakali og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarligida mashg'ulot rejasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.

Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.jtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz

**Xazratqulova Muhayyo Murod qizining 05.09.03 – Issiqlik ta'minoti. Ventil-yatsiya, konditsionerlash. Gaz ta'minoti va yoritish ixtisosligi bo'yicha “Fuqaro binolarini tashqi to'siqlar orqali isitish va sovutish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirishni takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.

Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: samdaqu@edu.uz



# Qo'ng'iroq chalinguncha

**Abbos uyg'onganida tun burguti qanotlarini yig'ib, tong yorisha boshlagan-di. Yuz-qo'lini yuvib, gazga choy qo'ydi-da, safar anjomlarini saraladi. Sumkasini yelkasiga osib, eshikka chiqqanida allaqachon kun yorishgan, quyosh taftidan butun olam bahra olardi. Abbas kolleжда o'qiydi, bugun o'qishdan paxta terimiga borishadi.**

\*\*\*

Kuz. Oltin fasl, u shoir ko'ngliga o'z ko'rki ila ilhom berish bilan birga ko'k gumbazi ayozdan dalo-lat bergandek qora bulutidan o'z ne'matini sochadi, dehqon belini mahkam bog'lab dalalardan rizq-ro'zi-ni yig'ish ila band. Egatlarga chumolidek yoyilgan terimchilar oppoq dalalarni bir zumda qoramtir tusga kirgizadilar. Abbas shaharlik emasmi, dala-dashtga ko'nikishi oson bo'lmadi: to'lib-to'lmagan etagini osiltirib yurishdan zerikar, nazdida vaqt to'xtab qol-gandek edi go'yo. Qalbiga ishq uchquni tushdi-yu butun vujudi uning tutunidan xonavayron bo'layoz-di, endi zerikishdan asar qolmagan, xayolida kunlar oqar, aqlini o'g'irlagan o'sha qiz bilan gaplashgisi kelaverar, yonidan bir qadam ham jilmasam derdi.

Qizning ismi Sojida. Uning husnini ko'rgan ki-shi tunda osmonni yorituvchi oy o'z joyini tark etib, yerga tushkanmikan, deb o'ylaydi. Ko'zlari may ichgan kabi mast qilsa qoshlari qayrilma shamshir-dek oshiq ko'ksini poralaydi, labi ostidagi dona xoli esa go'yo qalbiga kiruv tugmasidek qaraganni o'zi-ga tortaveradi. Qiz tushmagurning tabassumi ham sehlridek, kulsa, atrofdagilar unga qo'shilib beixtiyor jilmayadi. Abbas ana shu tabassumi go'zal qizning asiriga aylandi. U xayolga cho'mgancha paxta terarkan, ko'z oldiga Sojidaning jilmaygan chehrasi kelaverdi...

Shu payt qo'lida paxta to'la etagini bazo'r ko'tar-ganicha hansirab, yoniga Arjun, hech qancha vaqt o'tmasdan ortidan Isroil keldi. Yugurganidan jiqqa terga botgan kursdoshlariga qaragancha Abbasning xayoli bo'lindi, "soyga tushdilaringmi, nima balo?", dedi.

– Salom, do'stim, yaxshimisan, horma! – dedi do'stlari baravariga.

– Rahmat, xushvaqt bo'linglar, nimalarni boshlab yuribsizlar yana? – dedi Abbas ularga ma'noli qarab.

– Hech nima. Ortiqcha gaplarni qo'y, kel undan ko'ra, o'yin o'ynaymiz.

– Qanday o'yin? – dedi Abbas.

Arjun unga "uch chanoq" o'yinini tushuntirdi. Qizig'i, shu tob Arjun va Isroil aynan shu o'yinni o'ynab, boshqa bolalardan bir dunyo paxta yutib ol-gan, g'oliblik sururidan mast edilar. Ular Abbasning ozgina paxtasiga ham ko'z olaytirishgan, xullas, hamma kursdoshini bir boplamoqchi edilar.

– O'rta paxta tikiladi, yutqazgan paxtasini be-radi. Shu xolos, – dedi Isroil ko'zini o'ynatib.

Abbosga hech qizig'i yo'q, axir uch-to'rt kilo chiqar-chiqmas paxtasini yo'qotsa, nima o'zgarardi? Omadi kelsa boshqalarning paxtasi uniki bo'ladi!

Qirq daqiqacha davom etgan o'yinda uchovlon ketma-ket yutar, ular butun vujudi bilan o'yinga kirishgandi. So'nggi o'yin kutilmaganda Abbasning foydasiga hal bo'ldi. Yutqazib qo'yib, butun paxtasi-dan ayrilgan Arjun va Isroil baqraygancha turishardi. Birozdan keyin jiqqilashib, bir-biriga baqira ketdi. Bu holatni kuzatib turgan Abbasning ularga rahmi kelgandek:

– Mayli, urishmanglar, – dedi xotirjam. – Paxtam-ni xirmongacha ko'tarib chiqsalar, xursand qila-man.

Ular taajjub aralash nigohlarini Abbasga qadash-di-da, bir zum avval o'zlariga tegishli bo'lgan, endi

esa egasini topgan paxtalarini yelkalab xirmon sari jimgina yo'l olishdi.

Abbos esa uchchanoq o'yinida yutganidan o'zida yo'q xursand, do'stlarining orqasidan miyig'ida kulib, o'zi tergan ozgina paxtasini ko'tarib, asta xirmonga bordi. O'rtoqlari allaqachon paxtalarni topshirib, Ab-bosning nomiga yozdirib ketishgan ekan. Shu bois Abbas o'zini qahramonlardek his etdi – axir tushdan o'tar-o'tmas yuz kilodan

## SOJIDA Hikoya

oshiqroq

paxta terish hammaga ham nasib bo'lavermay-di.

Reja ortig'i bilan bitdi. Etagini beliga bog'lab, egat oralab hushtak chalib kelardi. Shu payt o'ng tarafidagi ariqda qizning mayin ovozi eshitildi:

– Kechirasiz, Abbas...

Abbos ortga qayrildi. Yuragi hapqirib ketdi. Ikki qo'lida etak ushlab olgan Sojida unga qarab turardi.

– Labbay, Sojida!

– Etagimni ko'tarishga yordamlashib yuboring, iltimos.

– Jonim bilan, – dedi Abbas tezda o'zini o'nglab olib.

U Sojidaga unsiz oshiq bo'lgani uchun ham

tuyg'ularini hech o'ziga aytolmas, gap otishga necha imkon axtarar, ammo jur'ati yetmas, jur'ati yetsa, vaziyat to'g'ri kelmasdi. Bugun esa... Abbasning kuni ekanmi, har tomondan omadi chopyapti.

– Bir o'zingiz, tushgacha ellik besh kilo paxta ter-dingizmi, Sojida? – dedi Abbas qizning paxtalarini tortib qaytisharkan.

– Ha, aslida bundan ko'proq terardim, lekin ertal-ab kechroq turibman-da, – dedi qiz boshini quyi egib borarkan.

– Sojida, – dedi yigit zimdan qizga qarab. – Chi-royli ismingiz bor-da. Sizga o'xshashini, ya'ni ismi jismiga mos qizni oldin ko'rmagandim.

– Xo'sh, qanaqa ekanman? – dedi qiz afsungar ko'zlarini yigitga qadagancha. Bu qarashlar Abbasni hayajonga soldi. Nogahon uchrashgan nigohlardan Abbasning ichida ajib titroq turdi, butun vujudi bu titroqdan jafo tortgandi.

– Men, men, shu, shunchaki aytmoqchi edimki, juda zo'r terarkansiz paxtani!

Abbosning iltifotidan Sojida sharaqlab kuldi. Bu-tun paxtazor bu kulgidan yayrab ketdi, go'yo.

Shu kundan e'tiboran bu ikki qalb sohibi yon-ma-yon egatga tushib olib, hangomani qizdirar, ba'zan miriqib kulishar, Abbas kundan kun qizga qattiqroq bog'lanib borardi. Shu alfozda terim mavsumi oxir-lab borar, soat kapkiri tinmay tebranar, diydorning har lahzasidan yigit o'zgacha bir kuch olar, g'ayrat bilan Sojida uchun ham paxta terib charchamasdi...

\*\*\*

Abbos ko'zlarini ochganida shom cho'kkan edi. U bemahalda uxlab qolganidan o'zini og'ir his etdi. Gazga choy qo'ydi-da, sumkasiga daftar kitobini sol-di va bir chetga qo'ydi. Ko'chada odam gavjum edi. Havo ochiq bo'lishiga qaramay, salqin shamol esar, uzoqdan ufqning bir burchida qora bulutlar ko'rinish turardi. Darvoqe, u bugun tanish manzilda Sojida bilan ko'rishishi kerak. Oh, bu olamdagi eng go'zal diydor bo'ladi.

Chetdan qaraganda, yigit va qiz yerdan unib chiqqan qo'sh niholdek edi, darsdan keyin albatta uchrashishar, birga ovqatlanar, xuddi hind filmlari-dagi oshiqlar kabi bir-biriga talpinardi. Biroq bugun Sojida uchrashuvga kelmadi. Qayta-qayta qo'ng'iroq qilsa ham ko'tarmadi, yuborgan xabarlariga javob yozmadi. Abbasning ichiga g'ulg'ula tushdi, xasta-landimikan-a, degancha Sojida yashaydigan yotoq-xonaga bordi. Bordi-yu, boshiga tog' qulagandek bo'ldi. Sojidaning dugonalari bor gapni aytib berish-di:

– U seni ahmoq qilib yurgandi, Abbasjon, – dedi shartakiroq kursdoshi yarim kulgi va achinish bilan boqqancha. – Aybga buyurmaysan, uchchanoq o'yna-gandik. Sojida bizga istalgan yigitni bir kunda o'ziga rom qilish bo'yicha garov bog'ladi. O'shanda unga sen to'g'ri kelib qolding... Biz unga agar shu bolani ilintirsang, senga tilla uzuk sovg'a qilamiz, deb shart-lashdik. Qolganini o'zing bilasan. Hozir u bizdan ol-gan tilla uzugini taqib qishlog'iga ketgan.

Eshik yopildi. Ichkaridan bir to'da qizlarning sho-don kulgisi yangradi. O'sha ovozlari ichida Sojidaning ovozi Abbas aniq eshitdi, ichida nimadir chirt etib uzilgandek bo'ldi. Bir nima deyishga yigitlik g'ururi yo'l qo'ymadi. Indamay zinalardan tushib borarkan, junjikib qo'lini cho'ntagiga soldi. Barmog'iga ignan-ing uchi kirgandek bo'ldi. Olib qaradi-yu, istamay-gina kulib yubordi. Bu paxta dalasida Arjun va Is-roilning paxtalarini yutib olishga sabab bo'lgan o'sha uchchanoq edi...

Husan ISPANTOV,  
O'ZMU talabasi  
Piskent tumanidagi  
14-maktabning matematika  
fani o'qituvchisi

## TILCHIGA

*Ajnabiy so'zlarning yo'lin yangiltir,  
Bilsang ayt-chi, nima o'zi "qongiltir"?*

*"Bo'lim" deyish mumkin "paragiraf"ni,  
"She'r" demaslar sira yo'g'on "giraf"ni.*

*"Vazifa" munosib xizmat – "missiya"ga,  
"Borlovchi" barobar har "komissiya"ga.*

*"Sup" dermishsan goho qora "sho'rva"ni,  
"Ryukzak" debsan yelkadagi "to'rva"ni.*

*"Tuzli suv"ning nomi bilsang "sharava",  
"Xodinka"ga mosdir "adokarava".*

*"Qirol" taxtga chiqib surdi "karol"ni,  
"O'ron" desa bo'lar asli "parol"ni.*

*Mos keladi "o'zan" so'zi "kanal"ga,  
Qo'nar manzil nomi asli "qo'nalg'a".*

*Til tagiga tashlab, gohida nosni,  
Qaydan topding "gurung"  
uchun "podkos"ni?*

*"P.S."mi? Yo'q! Desak bo'lar – "ildirgi",  
Jadidlar "e'lon"ni derdi "bildirgi".*

*"Lotariya" nomi bilsang "yonasib",  
"Asp" degani o'shal "ot"dir yo xasip.*

*Kuylatsang o'zbekcha kuylat-da torni,  
"Bekovul" desa bo'lar "moderator"ni.*

*Ajnabiy so'zlarning yo'lin yangiltir,  
Bilsang ayt-chi, nima o'zi "qongiltir"?*

Bahodir NURMUHAMMAD

# Hech bo'lmasa, shu kuni...

(21-oktabrga)



Hech bo'lmasa shu kuni xursand qilaylik uni,  
Hech bo'lmasa shu kuni bayram qilsin tilimiz.  
Hech bo'lmasa shu kuni xafa qilmaylik uni,  
Hech bo'lmasa shu kuni yayrab yursin tilimiz.

Hech bo'lmasa shu kuni qo'l  
urmang hech narsaga –  
Gala imlo xatodan qora bo'lmasin ko'ngli.  
Hatto nusxasi tayyor qo'l urmang arizaga –  
Chala imzo, savoddan xira bo'lmasin ko'ngli.

Hech bo'lmasa shu kuni  
chetchalarga dam bering –  
O'zbekcha so'zlarimning naqd qonuniy o'rni bu.  
Jilovsiz o'ris, ingliz... chinchalarga dam bering –  
O'zbek tili davlati, o'zbek tili yurti bu.

Yetmasmidi ming yillik boshga  
tushgan ko'rgulik –  
Fors, arab, mo'g'ul, o'ris tillari istilos.  
Bugun ingliz, xitoyni mehmon qilmoqda sho'rlik,  
Nahot boshlandi yana istilo ibtidosi.

Hech bo'lmasa shu kuni qo'yib bering o'ziga,  
Ona O'zbekistonni tutib ketsin ovozi.  
Boshkent ham to'lib ketsin  
o'zbekning o'z so'ziga,  
Toshkentda ham barq ursin davlat tili parvozi.

Hech bo'lmasa shu kuni she'rilar  
ayting – yayrasin:  
Yangrasin Navoiylar, yangrasin Boburiylar,  
Yangrasin Nodiralalar, Zulfiylar yangrasin,

Yangrasin Cho'lponlarim, yangrasin Qodiriylar,  
Sayrasin Abdullolar, Muhammadlar sayrasin,  
Yashnasin Erkinlarim, Rauflarim yashnasin.  
Hech bo'lmasa shu kuni uchsing "Cho'li Iroq"lar,  
Jarang sochsing yurt uzra o'zbekim sadolari.  
Ko'zin ochsing uxloqlar –

qalb ko'zlari mudroqlar –  
To'tiqul, To'tigullar – ona til gadolari.  
Belni mahkam bog'lang, ey o'zbekim fidolari.

Hech bo'lmasa shu kuni taralsin xush allalar,  
Mehribon quchoqlarning taftin olsin bolamiz.  
Hech bo'lmasa shu kuni yangrasin sho'x yallalar,  
Hech bo'lmasa bir kunga qaytsin oltin pallamiz.

Hech bo'lmasa shu kuni qutlab olaylik uni,  
Beshikdan to'qiyomat suyuq parvonamiz u.  
Hech bo'lmasa shu kuni kuylab qolaylik uni,  
Ikki dunyo tengi yo'q – buyuk taronamiz u.  
Hech bo'lmasa shu kuni o'xshaylik o'zimizga,  
Atlas-u do'ppilardan yashnasin ko'zlarimiz.  
Hech bo'lmasa shu kuni qayting o'zligimizga –  
Yashnasin o'zbek tili – o'zbekcha so'zlarimiz!

Xullas kalom, shu kuni O'zbek tili bayrami –  
Mumtoz so'z, navolardan nurga to'lsin yuraklar.  
Bag'rikeng, yo'li yorug' O'zbek elin bayrami –  
O'zbekiston madhida urib tursin yuraklar.

Gap-so'z tamom, shu kuni  
ona tilni o'yalaylik,  
Axir u o'zbekimiz, o'zligimiz timsoli.  
Oldimda oqar suv deb  
bee'tibor bo'lmaylik,  
Qurib qolmasin yana,  
u ham Orol misoli...

Jumanazar ABDULLAYEV,  
Guliston davlat  
universiteti dotsenti



**Quziyev Olmosbek Anvar o'g'lining 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Ko'p funktsiyali kombi-natsiyalashgan geliotexnik qurilmaning issiqlik-texnik parametrlarini asoslash" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.  
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

**Kurbonova Komila Shuxrat qizining 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha "Androgen alopetiya hujayra terapiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.  
Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

**Okyulov Xasan Omanbayevichning 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mulkdorlar qatlamining o'rni (xorijiy va milliy tajribalar qiyosiy tahlili)" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 246-02-24; e-mail: devonxona@nuu.uz, nuu@exat.uz

**Radjabova Muxtasar Davranbekovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (arab tili) ixtisosligi bo'yicha "Arab tilida talabalarning yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92;  
veb-sayt: www.uzswlu.uz; e-mail: uzswlu@gmail.ru

**Alimov Tohir Egamshukurovichning 10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik ixtisosligi bo'yicha "O'zbek, nemis, rus tillarida maishiy leksikaning semantik va funksional xususiyatlari" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01. Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**


Manzil: 100173, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,  
Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92;  
veb-sayt: www.uzswlu.uz; e-mail: uzswlu@gmail.ru

**Umarova Dilfuza Azadbekovnaning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha "Teri bazaliomalarining differensial tashxisoti va davolash usullarini takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 14-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-"a" uy.  
Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

**Yodgorov Baxtiyor Orziqulovichning 02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar ixtisosligi bo'yicha "Karbamido-formaldegid smolasi asosida uch komponentli interpolimer polimer komplekslar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish" mavzusidagi(kimyofanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.K.04.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.  
Tel/faks: (71) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi\_k.kengash@umail.uz





## Qunduz AMAKI

Bor ekan-u yo'q ekan,  
och ekan-u to'q ekan.  
Bo'ri bakovul, tulki yasovul  
bo'lmagan, qarg'a  
qaqimchilikni, chumchuq  
chaqimchilikni o'rganmagan  
zamonlar ekan. Bo'ri, tulki,  
qarg'a, chumchuqni qo'ying,  
dunyoda na odam, na dinovavr,  
na bir qurt, na bir maysa bor,  
"Big Bang"dan ham oldingi  
davrlar. Borliq faqat so'zdan  
iborat ekan. So'z tovushga  
aylanib moddiylashgach,  
tovush ham harflarga evrilibdi.  
Shu tariqa borliqda harflar  
hukmron bo'la boshlabdi.

Boshida harflarning barchasi tenglikda, tinch-totuvlikda yashabdi. Xuddi insonlarda bo'lgani kabi, vaqt o'tishi bilan harflarda ham turli xarakterlar, ichki illatlar paydo bo'lgach, ular ham asta-sekin tabaqalarga bo'linib, bir-birlari bilan janjallasha boshlabdi. Harflar orasidagi urush, taloto'p juda uzoq davom etibdi. Oxiri urushlardan charchagan harflar o'zaro majlis o'tkazib, tartibli jamiyat qurishga, ichlaridan bir hukmdor saylashga qaror qilishibdi. Shunday qilsagina oralaridagi mojaro-lar bitishiga ishonishibdi. Nihoyat barcha harflar bir joyga to'planib, saylovoldi majlisini o'tkazibdi. Lekin bu majlisdan ham hech bir naf chiqmabdi. Chunki harflarning barchasi podshoh bo'lishni istab, o'z nomzodini ilgari suribdi. Hamma podshoh bo'lishni istasa, kim ovoz beradi? Kim ularni saylaydi? Yana boshlanibdi janjal. "U"ning boshi yorilibdi, "O"ning qulog'i yuliniydi. "A"ning yumshog'i shahid bo'libdi, "I"ning qattig'i bedarak ketibdi. Xullas, unililar orasida talofatlar juda ko'p bo'libdi. Oltitasigina tirik qolibdi.

Janjallardan bezor bo'lgan harflar oxiri yana tortisha-tortisha podshohni faqat unililar orasidan saylashga qaror qilishibdi. Harflar orasida unililarning o'ziga yarasha obro'si bor ekan. Undan tashqari, urushlarda

# "NG" haqida ertak

ko'p yaqinlarini yo'qotib, juda qattiq tushkunlikka tushganlari uchun qolgan harflarning ularga rahmi kelibdi.

Nomzodlar aniqlangach, saylov kuni ham belgilanibdi. Unli harflar mitinglar o'tkazib, saylov kampaniyasini boshlab yuborishibdi.

– "Uzr" degan so'z bo'lsa, oramizdagi adovatlar butkul yo'qoladi. Hamma bir-biridan uzr so'raydi, yana qayta tinch-totuv yashaymiz. Meni saylasangiz, ishonchingizni oqlayman, – debdi "U".

– "Olam", "osmon", "oqillik" kabi so'zlar men bilan boshlanadi. Podshoh bo'lishga men ko'proq munosibman, – deb minbarlarda hayqiribdi "O".

– Meni saylamasangiz, "ilmsiz, ijodsiz, irfonsiz, iymonsiz" bo'lib qolasiz, – debdi "I".

– "O'qimoq", "o'rganmoq" bo'lmasa, sendan nima naf? Podshohlikka men loyiqman, – debdi "O".

– E-eee, – debdi "E". – "Erkinlik", "egamanlik" bo'lmasa, nima foyda o'rganmoqdan, ilm-u ijoddan? Meni saylanglar!

– Azizlar, – debdi bosiq, donishmandona ovozda "A". – Bizga hozir eng keragi "adolat". "Adolat" bo'lsa, hammasi yaxshi bo'ladi. Undan tashqari, harflarning avvali menman. Menga ovoz bering.

U paytlar nazorat qiladigan xalqaro tashkilotlar bo'lmagan bo'is, saylovning qanchalik adolatli o'tganini bilmaymiz. Oraga korrupsiya aralashganmi, yo'qmi, undan ham xabardor emasmiz. Xullas, yakunda "A" harflar podshohi etib saylanibdi.

Hukumat ishlari faqat podshohning o'zi bilan bo'lmaydi-ku. Harflar mamlakatini boshqarish uchun boshqa lavozimlar ham kerak. "A"ning o'zi qolganlarni tayinlabdi. Unli harflar podshohga

maslahatchi bo'lishibdi. "Boshliq", "boshqaruvchi" so'zlari sabab "A" "B"ni birinchilardan bo'lib yoniga chaqiribdi va unga ko'plab vakolatlar beribdi. Durustligi, do'stligi sabab "D" ham uning orqasidan ko'tarilib ketibdi. "F" farmonlarni e'lon qiluvchi bo'libdi. "G" garnizon boshlig'i. "H" hokim. "J" va "K"ning qanday qilib lavozimga tayinlangani haqida ma'lumotlar yo'q. Ammo "L" laganbardorligi ortidan "A"ning e'tiboriga tushganmish. "M" mulozim, "N" nozir bo'libdi. "P" ham "A"ning eng yaqin mahramiga aylanibdi (bunga "P"ning "paxtakor"ligi, poraxo'rliqi sabab degan mish-mishlar yuradi). "Q" qorovul, "R" rahbar, "S" sudya, "T" tergovchi, "V" vazir, "X" xavfsizlik xodimi, "Y" yordamchi, "Z" zakunchi, "G" g'aznachi bo'libdi. "Sh" shayxulislom, "Ch" esa choparlikka tayinlanibdi. Faqat "NG"agina so'z boshida kelmagani bo'is, hech bir lavozim tegmabdi.

Soliq to'laydigan ham, kattalar kulsa, kuladigan, o'lsa o'ladigan ham, pora beradigan ham, paxta teradigan ham, ekin ekadigan, jabr chekadigan ham... "NG". Hamma to'rda, u poygakda, hamma olda, u orqada. Butun hukmdor harflar unga buyruq berar, u esa butun harflarga xizmat qilib, orqasidan ergashib yurar ekan.

Mamlakat, hukmdor va amaldorlar bo'lgandan so'ng, boshqariladigan xalq ham bo'lishi kerak, shunday emasmi? Harflar mamlakatida, boshqariluvchi qora xalq vazifasini "NG" bajaribdi. "NG" sabab Harflar mamlakatida janjallar bitibdi, xafagarchiliklar ketibdi, hamma murod maqsadiga yetibdi.

Qissadan hissa shuki, aziz kattakonlar, alifbomizdan "NG"ni olib tashlasangiz, Harflar mamlakatining oyog'i osmondan bo'lib ketishi tayin.



## Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149 150. V-6169. Tiraji 6545.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.  
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan  
materiallarni ko'chirib  
bosish tahririyat  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqiriz  
qilinmaydi va mual-  
lfiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani  
yuklab olish uchun  
ushbu QR-kodni  
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.  
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.  
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

### MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,  
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.  
Veb-sayt: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi.  
Korxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.